



# VATANPARVAR

MILLY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan ● 2024-yil 26-aprel, №17 (3079)

4 KICHIK KOMANDIDLAR  
KO'NIKMASI  
OSHIRILDI

6-7 XALQINI JON KABI  
ASRAR HARBIYLAR

10 "QAYTMAGAYMAN,  
HECH QO'RQMAYMAN  
BU YO'Ldan"

14 VATANIM, ORIM DEB  
QASAMYOD QILDIM!

17 U 19 YOSHDA  
QAHRAMON BO'LDI



SHARAFDIR, SHONDIR  
VATANGA XIZMAT!



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

Urganch shahrida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyida davlat arboblari, ijodkorlar, san'at ustalari va tarixchi olimlar, generallar ishtirokida "Milliy ruh va g'urur – yoshlarning quroli" nomli ijodiy uchrashuv o'tkazildi.



## MILLIY RUH VA G'URUR –



Uchrashuvdan oldin mehmonlar va litsey o'quvchilari shahar markazida joylashgan Jaloliddin Manguberdi memorial bog'ida bo'ldi. Bog' markazida tulpor jilovini mahkam tutib, yurt himoyasiga otlanib turgani tasvirlangan buyuk ajdodimiz siyosida kelajakka katta ishonch bilan intilayotgan xalqimizning vatanparvarligi, bukilmas irodasi o'z ifodasini topgan. Sulton Jaloliddin Manguberdi haykali poyiga gul qo'yish marosimidan so'ng mehmonlar tadbirning asosiy manzili – buyuk sarkarda nomi bilan

atalgan harbiy akademik litseyga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari shu yilning 1-mart kuni ushbu ta'lif muassasasiga tashrif buyurib, u yerda o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatda: "Bu yerda aniq fanlar o'qitilishi yaxshi. Shu bilan birga, dars jarayonlarida vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, qadriyatlarimizi ham o'rgatish lozim. Shunday bo'lishi kerakki, milliy ruh va g'urur yoshlarning eng kuchli quroli bo'lishi kerak", deya ta'kidlagan. Shuningdek,

Prezidentimiz harbiy-jangovar qudrat, yuksak ma'nnaviy salohiyat yurt himoyachilarining muhim tayanchi ekanini e'tirof etdi. Litsey o'quvchilari bilan ma'nnaviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam olib borish, madaniyat xodimlari, san'at namoyandalari, davlat arboblari bilan uchrashuvlar tashkil etish yuzasidan topshiriqlar bergan edi.

Mehmonlar dastlab litsey hududi bo'ylab sayohat qildi. Zamonaviy ta'lif-tarbiya, ilm-fan va kommunikatsiya texnologiyalaridan saboq berish, laboratoriya va ixtirochilik ishlari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan litsey haqiqatan ham oldingi avlod yoshlari uchun orzu qildigan ta'lif maskani bo'lsa, bugungi yoshlar uchun jahon standartlariga mos eng so'nggi

bilan jihozlangan. Litsey axborot-resurs markazida 7 mingdan ortiq o'quv va badiiy kitob, 11 mingdan ortiq elektron adabiyot mavjud. U viloyatdagi oliy ta'lif muassasalarini hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tarmog'iga ulangan.

Tadbir rejasidan o'r'in olgan ma'nnaviy-ma'rifiy kechada Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey hamda Ichki ishlari vazirligiga qarashli Xorazm akademik litseyning o'qituvchi va o'quvchilarini ishtirok etdi.

Eng avval Prezidentimizning ushbu ta'lif dargohiga tashrifi aks etgan videolavha namoyish etilib, davlatimiz rahbarining muassasada ta'lif olayotgan yoshlardan umidlari



sharoitlarda ta'lif olish imkonini yaratdi.

Litsey Urganch davlat universiteti hamda Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti bilan hamkorlik o'rnatgan. Shuningdek, Urganch shahridagi 3-umumta'lif maktabi o'quvchilari ishtirokida muntazam ravishda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, sport musobaqlari o'tkazib kelinmoqda. Ta'lif muassasasi faoliyatini 2023-yili boshlagan. 300 o'rinali zamonaviy binoda yoshlarning ta'lif-tarbiya olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular bu yerda aniq fanlar yo'nalishida ikki yil ta'lif oladi. O'quv xonalari eng so'nggi rusumdagagi multimedia va kommunikatsiya vositalari

katta ekani borasidagi fikrlari tinglandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'z nutqida vatandoshlarimiz, birinchi navbatda, Xorazm ahli, voha yoshlari Jaloliddin Manguberdini tarixiy manbalar, ilmiy va badiiy asarlar, teleseriallar, kuy-qo'shiqlar orqali yaxshi bilishini, mardlik va jasorat, mustahkam iymon va olyijanoblik, vatanparvarlik va sharaf bobida tengi yo'q bo'lgan bu ulug' ajdodimizning hayot yo'liga to'xtalib o'tdi.

Tadbirda ishtirok etgan mudofaa vazirining o'rinosari general-major Hamdam Qarshiyev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, O'zbekiston





# YOSHLAR QUROLI



xalq shoiri Mahmud Toir, "Ma'naviy hayat" jurnali bosh muharriri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir Eshqobil Shukurov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari – kinorejissyor Hiloc Nasimov, shoirlar Zulfiya Mo'minova va Gavhar Ibodullayeva o'z nutqida yoshlarni Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovon turmushi uchun fidoyi bo'lishga, shunday zamonaviy sharoitlarga, hukumatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarga namunalni xulqi va ulkan yutuqlari bilan javob qaytarishi kerakligini ta'kidladi.

Bu yerda o'qigan yoshlar Jaloliddin Manguberdining munosib vorislari bo'lib, vatanparvar, yurtsevar, mard va jasur, Vatanning



buguni va kelajagi uchun jonkuyar bo'lishi kerakligi uqtirildi. Jaloliddin Manguberdi o'zining navqiron yoshligini ona Vatan osoyishtaligi uchun dushmanga qarshi betinim jang-u jadalda o'tkazgani,

yurtimizning bir qarich tuprog'ini ham yovga berib qo'ymagani, shuning uchun u hanuzgacha navqiron, barhayot siymo bo'lib shonli tariximizdan, xotiramiz va tasavvurlarimizdan o'rin olgani e'tirof etildi.

Albatta, shoir va yozuvchilar bilan o'tkazilgan har qanday tadbir ijodiy kechaga aylanib ketadi. Tadbir davomida taniqli shoir va shoirlar g'urur, havas va shodliklarini she'riy misralar bilan izhor etib, yig'ilganlarni she'riyat olamiga olib kirdi.

"Elparvar" filmida Jaloliddin Manguberdi rolini mohirona ijro etgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori Mehriddin Rahmatov ijrosidagi "Sulton Jaloliddin" tarixiy dramasidan o'qilgan monolog yoshlarni mardlik va jasoratga undagan bo'lsa, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, kino va teatr aktyori Tohir

Saidov tomonidan namoyish etilgan "Sohibqiron" tarixiy dramasidan Amir Temur monologi yig'ilganlar qalbini cheksiz faxr va iftixon tuyg'usiga to'ldirdi.

Tadbir so'ngida mehmonlar tomonidan harbiy akademik litsey fondiga "Mard askarga sovg'a" kitoblar to'plamlari hadya etildi. Bunga javoban litsey o'quvchilari taniqli shoirlarning Vatanni, insoniylik fazilatlarini madh etuvchi she'rlardan parchalar o'qib, mehmonlarni xushnud etdi.

Yakunda mehmonlar va litsey o'quvchilari birqalikda "askarcha" tushlik qilib, kelajakdag'i orzulari, ushbu ta'lim muassasasiga o'qishga kirgandan beri erishgan yutuqlari haqida o'rtoqlashdi.

**Podpolkovnik  
Timur NARZIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**



# KICHIK KOMANDIRLAR



## KO'NIKMASI OSHIRILDI

Markaziy harbiy okrugning "Forish" tog'-o'quv poligonida kichik komandirlar, ya'ni yo'riqchi-serjantlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi.

boshlandi. Unda mashg'ulot rahbarlari tomonidan jangovar texnika va uskunalarining ishlash tartibi va xususiyatlariga to'xtalib o'tildi. Nazariy bilimlarini boyitgan ishtirokchilar amaliy jarayonlarga har tomonlama shay holga keldi. Shundan so'ng amaliy mashg'ulotlar start oldi.

to'plamini kiyish, yaralangan harbiy xizmatchiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish va uni xavfsiz hududga olib o'tish, guruh, yakka tartibda harakatlanib, nishonlarni yo'q qilish hamda zirhli mashinalar va artilleriya qurollari yordamida shartli dushmanni yakson qilish bo'yicha mashg'ulotlarda o'z bilim va ko'nikmalarini oshirdi.

- O'quv yig'in puxta tayyorgarlik va uyushqoqlik bilan o'tkazildi, - deydi III darajali serjant O'ktam Abdullayev.

- Biz o'z mutaxassisligimiz bo'yicha boy kasbiy tajriba va bilimga ega bo'ladigan ustozlardan zamonaviy jang taktikalarini, mashg'ulotlar tashkil etishda ahamiyat qaratish lozim bo'ladigan muhim jihatlarni o'rgandik. Bu kelgusidagi xizmat faoliyatimizda o'z samarasini beradi.

Armiyamiz tayanchi bo'lgan serjantlarning shaxt va qat'iyat bilan bajarayotgan harakatlarini kuzatib, bir xulosaga kelish mumkin: ular bir joyda to'xtab qolmay, o'z ustida tinimsiz ishslash, bilim va tajribalarini mustahkamlab borish, zamonaviy jang usul va uslublarini o'zlashtirgan holda Qurolli Kuchlarimiz nufuzini



Darhaqiqat, qo'shinlarda xizmat qilayotgan har bir kichik komandirning yuksak bilimli, keng dunyoqarashli bo'lishi, har qanday murakkab va nostandard vaziyatda to'g'ri qaror qabul qila olishi juda muhim. Bugungi kunda serjantlar korpusiga qo'yilayotgan talablar ana shu tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shuningdek, harbiy jamoalarda sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni kamol toptirishda kichik

komandirlarning o'rni va roli ham nihoyatda muhim.

"Forish" tog'-o'quv poligonida o'tkazilgan mazkur yig'in davomida okrug qo'shinlaridagi yo'riqchi-serjantlar uchun nazariy mashg'ulotlar davomida zamonaviy jang olib borish usullari-yu harakatlanish taktikalari malakali ustozlar tomonidan o'rgatildi. Yig'in nazariy bilimlarni mustahkamlash va takrorlashdan

Amaliy mashg'ulotlarda mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbanov, okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev va mas'ul ofitserlar ishtirok etib, yo'riqchi-serjantlarga zarur ko'rsatma va yo'l-yo'riqlar berdi. Bu, shubhasiz, ishtirokchilarga g'ayrat va shijoat bag'ishladi.

O'quv-uslubiy yig'inga jalb etilgan yo'riqchi-serjantlar rejaga muvofiq, tezkorlik bilan umumqo'shin himoya

oshirishga, milliy armiyamiz kuch-qudratiga munosib hissa qo'shishga ahd qilgan.

Zotan, mard va jasur o'g'lonlarimiz yurtga kamarbasta, xalqimizning osuda hayotiga hamisha mas'uldirlar.

**Katta leytenant  
Otabek NORBOYEV,  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**



Bugungi globallashuv davrida g'oyaviy-siyosiy kurashlar avj olayotgan bir sharoitda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimizning tinch, osuda va farovon hayot kechirishini ta'minlash, barkamol shaxsni tarbiyalash kun tartibidagi dolzARB masalalar hisoblanadi.

Shuningdek, davlatimizning harbiy xavfsizligini ishonchli himoya qilish, milliy armiyamizning jangovar quadratini mustahkamlash, shaxsiy tarkibning harbiy-kasbiy tayyorgarligi va jangovar-axloqiy sifatlarini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.



# AXLOQIY OMILNING YUKSAK IFODASI

Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va qobiliyati bir-biri bilan o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy omillar orqali namoyon bo'ladi. Moddiy tomoni qanchalik ahamiyatlari bo'lmasin, asosiy e'tibor inson omiliga, shaxsiy tarkibning harbiy-kasbiy, ma'naviy-axloqiy sifatlariga qaratiladi. Zero axloqiy omil davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlab beruvchi, zamonaviy jangovar harakatlarda g'alabaga yetaklovchi, asosiy hal qiluvchi manbalardan biri bo'lib, u harbiy xizmatchining, bo'linmaning muayyan vazifani bajarish jarayonida axloqiy kuch-qudratini ifodalovchi me'yordir. Mazkur tushuncha kundalik hayotda inson xulq-atvori va faoliyatiga nisbatan tafsif berishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Qahramonlik tarixiy hodisa sifatida kishilar ijtimoiy faolligining yuqori shaklini ifodalaydi. U insonning muayyan vaziyatda ongli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir. Qahramon - u yoki bu vaziyatda o'zining ichki ishonchiga asoslanib, qo'rqlay o'lim xavfiga qarshi boruvchi va ixtiyoriy ravishda o'z hayotini qurban qiluvchi shaxs. Ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida unga mos keladigan o'z qahramonlari bo'ladi.

Buguk ajodolarimiz Vatan erki va ozodligi yo'lida ko'satsagan mislsiz qahramonliklari bilan insoniyatni hanuz lol qoldirib kelmoqda. Ona Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak, To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi nomlari mangulikka daxldor shaxslarni ko'ramiz. Jumladan, buyuk ajodomiz Najmuddin Kubroning jasorati tillardan tillarga o'tib keladi. U Xorazmga mo'g'ullar bostirib kelayotganidan xabar topib, Vatan himoyasiga birinchilardan bo'lib otlanadi. Najmuddin Kubroning xalq orasidagi dovrug'i eshitib, Chingizxon u kishiga chopar yuborib, "Men Xorazmni qatliom qilmoqchiman, shuning uchun sizdek ulug' shaxs u yerdan ketib, bizga qo'shilishingizni so'rayman", degan. O'z jonini saqlab qolish yo'lida Vatanini yovga topshirishni deb bilgan shayx bosqinchilarga qarshi: "Yo Vatan, yo sharafli o'lim!" deya jangga kiridi va mardlaracha tug' ko'tarib borayotgan holatda halok bo'ladi. Najmuddin Kubroning ona Vataniga sadoqati asrlar osha ma'naviy jasoratning buyuk cho'qqisiga, mardlik va matonatning olyi namunasiga aylandi.

Qahramonlik jangovar shon-shavkat deb aytish mumkin bo'lgan juda ko'p qirralarga ega: shijoatkorlik, mardlik, botirlik, fidoyilik, vatanparvarlik, dovyuraklik, jasorat, matonat kabilari. Mazkur jihatlar inson faoliyatining muayyan tabiatidan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Shuningdek, qahramonlik eng fojiali vaziyatda ham, insonning o'ziga va kelajakka bo'lgan ishonchini saqlab qolishiga imkon beradi. U qo'shinlar axloqiy barqarorligini ta'minlab, hatto dushmanga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ular ongida g'alabaga bo'lgan ishonch hissini so'ndiradi.

Ana shunday xislatlarni o'zida mujassam etgan buyuk sarkarda Amir Temur Toshkent uchun bo'lgan jangda chap oyog'idan jarohat olishiga qaramay, jang maydonini tashlab ketmaydi: "Og'riq kuchli bo'lsa ham, men ovoz

chiqarmadim, ingramadim hatto. Shuning uchun ham jangchilarim mening shikastlanganimni bilmadi. Aslida ham rahnamoning mardligi shundaki, o'limga yuzma-yuz borib, dushmanlar bilan mardonavor kurashish barobarida jarohatlangan payti dod solmasligi, ingramasligi darkor".

Mardonavor harakat - qahramonlikning toji - yuksak g'oyalar uchun kishilarning botirlarcha xatti-harakatlari orqali yuz beradi. Qahramonlik ro'yobga chiqquniga qadar turli bosqichlarda ushbu tarkibning yo u, yo bu xususiyati ustuvorlik qiladi. Agar shaxsning mardonavor harakatga tayyorgarlik darajasi milliy g'oyamizga bo'lgan mustahkam e'tiqodiga, intellektning axloqiy yetukligiga asoslansa, qahramonlik hodisasi rivojida belgilovchi ustuvorlik irodaga tegishli bo'ladi. His-tuyg'ular, o'z navbatida, mardonavor harakatni yuzaga chiqaradigan motivatsiyaning kuchayishiga turki beradi. Shaxsning harbiy mahorati, maxsus kasbiy tayyorgarligi qanchalik yuqori bo'lsa, mustahkam e'tiqodi, barqaror ruhiyati, metin irodasi shunchalik samarali namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitlarda har tomonlama chuqur kasbiy bilim va malakaga ega bo'lmay turib, qahramonlik hodisasini namoyon etish imkoniyati tobora kamayib borada.

Harbiy qahramonlik ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Harbiy xizmat tabiatni shundaki, u barcha toifadagi harbiy xizmatchilardan hamma vaqt qahramonlik ko'rsatishga tayyor turishni taqozo etadi. Shu sababli harbiy xizmatchi va qahramon tushunchalarini bir-biri bilan o'zaro dialektik bog'liqdir. Harbiy qahramonlik deganda shaxs, xalq, harbiy bo'linmaning dushman ustidan g'alaba qozonishi uchun fidokorona harakat qilib, qurolli kurashda jangovar faoliyit va axloqiy mas'uliyatni yuqori darajada namoyon etishi tushuniladi. O'zbek o'g'loni, 57-gvardiyachi diviziya qo'mondoni general-major Sobir Rahimov ko'rsatgan harbiy jasorati uchun to'rt marta "Qizil bayroq" ordeni, Suvorov ordeni, "Qizil Yulduz" ordeni va ko'plab medallar bilan taqdirlangan. 1943-yili unga general-major unvoni beriladi va Moskvada oliy harbiy akademiyaga o'qishga chaqiriladi. Akademiyani tamomlab, avval Belorussiyani, so'ng Polshaning Gnev, Starograd, Dzyalovo shaharlarini ozod etish uchun janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atini hamda jasur, mard, qat'iyatlari general ekanini namoyish etadi. U 26-martda Gdansk shahrinini ozod etish uchun olib borilgan jangda qahramonlarcha halok bo'ladi va o'limidan so'ng Qahramon unvoni berilgan. Gdansk shahridagi ko'chalar, maktablarga general Sobir Rahimov nomi berilgan.

Qahramonlik shijoati o'lim xavf solib turgan vaziyatda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lum ma'noda u "bir martalik", individuallashgan tabiatga ega. Ayni paytda shijoat guruh, jamaa, hatto butun bir sinfga ham xos xususiyat bo'lib, u odatda kishilarning qahramonlik namunalaridan ruhanishi natijasida yuzaga keladi. "Shijoat deb botir va yurakli bo'lmakni aytilar. Shijoatning haqiqati qalbning matonatindan, ruhnining salomatindan iboratdir". Shuningdek, Husayn Voiz Koshify "Axloqi Muhsiniy"

asarida aytadiki, "shijoat fazilatlarning onasidir, ya'ni ulug' va yoqimli xislatlardan. U botirlik, jasorat, mardlik ma'nolarini anglatadi. Shijoatli odamni hamma o'ziga do'st sanaydi. Shu bois bu fazilat eng qiyin, mashaqqatli fazilatlardan biridir". Qahramonlik shijoati - shaxsning ulug' vor maqsadlar yo'lida hech narsani o'ylamay qiling ongli xatti-harakati. Inson biror bir xavf-xatarga duch kelganida irodasi mustahkam bo'lishi, o'zini mardonavor tutishi lozim. Qahramonlik shijoatining ahamiyati, birinchi navbatda, ommaviy harakatning tashabbuskori ekanida o'z ifodasini topadi. Zero ona Vatani va xalqi uchun o'z jonini fido qilish qahramonlikning yuksak namunasi hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqilligining o'tgan davrida Vatanimizning ko'plab asl farzandlari, xususan mard harbiyalarimiz mustaqilligimizni asrash, yurtimiz tinchligini ta'minlash, xalqimizning qadr-qimmati, or-nomusini himoya qilish, bosqinchchi va yovuz kuchlarga qarshi kurashlarda bukilmas iroda va jasorat namunasini namoyon etib, bugungi tinch va osoyishtu kunlar uchun jonini fido qildi. Bular qatorida 2000-yili Surxonaryo viloyatining tog'li hududlarida xalqaro terrorchi jangari to'dalariga qarshi kurashda katta leytenant M. Jalilov, katta leytenant A. Salimov, leytenant B. G'aniyev, leytenant S. Sadinov, batalyon feldsheri serjant Q. Madolimov, kichik serjant Y. Oxunov va boshqalar fidoyilik namunalarini ko'rsatdi. Ular jangning hal qiluvchi daqiqalarida iordaning imkon darajasida safarbar etilishi va axloqiy tuyg'ularning kuchayishini namoyon etdi. Zotan, jangda mardlik va jasorat muhim o'rin tutadi. Bu sifatlar kishining faqat jismoniy quvvatini anglatmaydi, balki jangchida katta qalb bo'lishi lozimligini ham bildiradi.

Jangovar vaziyatda jangovar shijoat o'zini qurban qilish orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu hodisa fidoyilikning to'liq ifodasi, shaxs (yoki jamaa)ning umumiyo taraqqiyot manfaatlari yo'lida o'zini qurban qilishiga qodirligini aks ettiradi. Tillarda doston bo'lgan razvedkachi N. Kuznetsov o'limi oldidan shunday yozadi: "Men hayotni sevaman, hali juda yoshman. Ammo o'z onamdek sevgan Vatanim nemis bosqinchilaridan ozod bo'lishi yo'lida o'zimni qurban qilishimni talab etmoqda va men buni amalga oshiraman". Inson eng og'ir, fojiali daqiqalarda o'zidan nimadir qolishini, uning nomi izsiz ketmasligini, ona Vatanining sodiq o'g'loni bo'lib qolishni istaydi. Faqat axloqiy erkinlikning yuksak darajasiga ko'tarilgan insonlargafojiali daqiqalarda bunday harakatlarni amalga oshirishga qodir bo'ladi.

Shu bilan birga inson kundalik faoliyati davomida o'z vazifalarini bajarish jarayonida ham qahramonona harakatlarni sodir etishi mumkin. Jumladan, chegarachilarining kundalik xizmati, uchuvchilarining murakkab vaziyatlarda yuqori va past-balansliklarda, hatto tunda ham parvozni amalga oshirishi, savyorlar, razvedkachilar, tankchilar, artilleriyachi va boshqa mutaxassislarining kundalik faoliyati qahramonlikning yorqin namunasidir.

Qahramonlik harakati inson o'z oldiga qo'yan vazifalarining ulug' vorligi bilan aniqlanadi. Axloqiy omil yuksak ma'naviy safarbarlik holatida bo'lganida qahramonlik komponenti o'zini yaqqol namoyon etadi. Shu bois harbiy xizmatchilarimizning kasbiy mahorati, jangovar tayyorgarligi va ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga yuqori talablar qo'yilmoqda.

Zero tarbiyaviy ishlar to'g'ri va aniq tashkillashtirilsa, shaxsiy tarkibning ruhiyati baland bo'ladi, axloqiy kuch moddiy kuchga aylanadi.

Qisqa fursatlarda xalqimizning ko‘z oldida milliy armiyamiz ham jismoniy, ham ma’naviy qiyofada qad rostladi. Eskicha tartib va qoliplardan butunlay voz kechilib, har bir harbiy xizmatchining individual tartibda rivojlanishiga, harbiy va dunyoviy fanlarni chuqur o‘zlashtirishiga, bir so‘z bilan aytganda, professional yurt himoyachisiga aylanishiga erishildi.



# XALQINI JON KABI



Ayniqsa, yurt boshidan o‘tgan sinovli yillarda ham armiyamiz eng birinchilardan bo‘lib el qoshiga oshiqdi, fuqarolarimizga har taraflama ko‘mak berdi, **FIDOYILIK VA BAG‘RIKENGLIK FAZILATLARI BILAN XALQ ISHONCHINI QOZONDI**.

O‘tayotgan fursatlar harbiy xizmatchining qadri – kimga va nima uchun xizmat qilayotganida ekanini tobora oydinlashtirib, asl maqsadlarimiz qiyofasini namoyon etdi.

Kuni kecha poytaxtimizning gavjum va muhtasham ko‘chalari bo‘ylab uyushtirilgan Mudofaa vazirligi qo‘sishinlari harbiy bo‘linmalarining tantanali piyoda yurish jarayonlari ham yurtdoshlarimiz uchun kutilmagan quvonchli lahzalarni taqdirm etdi.

Toshkent shahrining asosiy ko‘chalarida Mudofaa vazirligi qo‘sishinlari **HARBIY BO‘LINMALARINING JANGOVAR KUY VA QO‘SHIQLAR JO‘RLIGIDA SAF TORTIB O‘TISHI BARCHANING DIQQAT-E‘TIBORIDA BO‘LDI**.

Qurolli Kuchlar akademiyasidan start olgan tantanali yurishlar Amir Temur xiyoboni, Respublika travmatologiya va

ortopediya ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent markaziy EKO bog‘i, Toshkent Markaziy bog‘i bo‘ylab davom etdi.

O‘nlab yurtdoshlarimiz bu o‘ziga xos manzarani qarsaklar, olqish-u e’tiroflar bilan qarshi olar ekan, orkestr sadolari va saf qo‘shiqlarini o‘zgacha hayrat bilan kuzatib bordi.

Harbiy bo‘linmalar tomonidan Amir Temur xiyobonida namoyish etilgan qo‘l jangi va faxriy qorovul jamoasining ko‘rgazmali chiqishlari, bo‘linmaning jangovar chaqirig‘i, harbiy orkestrning difele namoyishlari haqiqiy shouga aylandi.

Ko‘cha-ko‘yda sayr qilib yurgan oilalardan tortib biror yumush bilan shoshilayotgan yurtdoshlarimiz, yosh-u qarilar ajoyib tomoshalardan zavq oldi. Kimdir o‘g‘lini yelkasiga ko‘targancha: **“HAQIQIY JANGCHI ANA SHUNDAY BO‘LADI, SEN HAM SHUNDAY BO‘LGIN!”**  
d e y a z a v q l a n i b tushuntirsa, yana kimdir o‘zbek o‘g‘lonlarining chaqqon harakatlari, dushmaniga zarba berish usullari,





# ASRAR HARBIYLAR



yakkama-yakka kurashlarda raqibini mohirlik bilan mag'lub etishidan huzur tuyar edi.

Tabiiyki, ushbu manzara hammaga turlicha taassurot ulasha olgani bilan esda qoldi.

**Hilola SHODIYEVA, o'qituvchi:**

– Bugunimdan juda shod bo'ldim. Darslarda o'quvchilarimning ruhiyatini ko'tarishga, ularni shu Vatanni asrab-avaylashga chorlaydigan ta'sirchan voqealarni aytib berishga harakat qilar edim. Bugun **YUZLAB HARBIY XIZMATCHILARNING CHAQNAB TURGAN KO'ZLARIDAN, XATTI-HARAKATLARIDAN, KUCH-QUDRATIDAN KATTA KUCH VA ISHONCH OLDIM**. Bu hisni men albatta o'quvchilarim bilan baham ko'raman. Yurtimizning tinchligi, o'tayotgan kunlarimiz osudaligining asl sababchilarini yaqindan ko'rganimdan xursandman.

**XALQIMIZ ARMIYAMIZGA I SHONADI, YAXSHI KO'RADI. BU ENG KATTA BAHOMIZDIR.**

**Shokir SODIQOV, o'quvchi:**

– Dadam bilan bog'ni sayr qilib yurgandik. Harbiy akalarimni ko'rib, shoshib goldim. Ulardagi chaqqonlik, qo'rmaslik, qurollarni ishlata olish mahorati menga juda yoqdi. Dadamga "Men ham shunday kuchli bo'laman, armiyaga boraman", dedim.

**Hilola ERNAZAROVA:**

– Harbiy xizmatchilardagi qat'iyat, odob-axloq, jismonan yetuklikka qoyil qolmay ilojim yo'q. Ular hammaga o'rnak bo'la oladi. Qaniyi, barcha yigitlarimiz ana shunday mukammallikka erishishga harakat qilsa...

Men o'tgan yillarda ham harbiylarimizning xalq orasida yurganlariga bir necha bor guvoh bo'ldim. **O'ZINGNI HIMYOYACHING BORDAY XOTIRJAM SEZAR EKANSAN**. Harbiy libosdagi yigitlarimiz doim omon bo'lsin. Vatanni qo'riqlashdan sira charchamasinlar!

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
"Vatanparvar"

# HINDISTONNI QALQITGAN, BRITANIYANI QO'RQITGAN



1837–1858-yillard Hindiston hukmdori bo'lgan Bahodirshoh II Boburiylar sulolasining o'n to'qqizinchini avlodi edi. U 1775-yili dunyoga kelib, 62 yoshida taxtga chiqadi. Bu vaqtga kelib ingliz mustamlakachilari Dehlini ham egallab bo'lgandi. Shu bois sulola rasman davom etsada, shohning amr-u farmonlari poytaxtdagi "Qizil qal'a" dan bir qadam nariga o'tmas, Bahodirshoh Zafar va oilasi amalda tutqunda saqlanardi. Xonadon ahli Britaniyaning "Ost Indiya" kompaniyasi nafaqasi hisobiga yashar, hukmdor vaqtini namoz-u ibodat, she'r yozish, adabiyot va san'at ahli bilan suhbatga bag'ishlardi. Zamondoshlari uni yuksak fasohat va o'tkir aql sohibi deya qayd etishgan. 1857-yil may oyida Hindiston hududiga yashin tezligida tarqalgan sipohiyilar isyonini podshohning osoyishta va xilvatnishi hayotini butunlay ag'dar-to'ntar qilib yubordi.



# SO'NGGI BOBURIY – 82 YASHAR ISYONKOR

## SIGIR VA CHO'CHQA YOG'I SABAB BOSHLANGAN ISYON

Bir necha o'n yillardan buyon inglizlarning talashi, og'ir soliqlar, irqiy va diniy kamsitilishlar hind xalqining sabr kosasini to'ldirgan edi. Sipohiyarga yangicha miltiq tarqatilishi esa cho'g'lanib turgan olovga moy sepgandek ta'sir etadi. Boisi, miltiqni o'qlash uchun patronni o'rab turgan karton tish bilan olib tashlanardi. Qog'ozga esa qoramol va cho'chqa yog'i shimdirilgani haqida mish-mishlar tarqaydi. Sigir hindlarda muqaddas hayvon bo'lgani, cho'chqa musulmonlar uchun harom sanalgani bois, bu diniy e'tiqodlarni ochiqdan ochiq tahqirlash edi. Natijada 1857-yil 10-mayda Mirut (*Meratx*)dagi uchta sipohiyilar polki qo'zg'onon ko'taridi va Dehliga qarab yurish boshlaydi. Ra'yiyatda turli diniy e'tiqod va dunyoqarashdagi Hindiston aholisini faqat podshohgina birlashtirishi mumkin degan, tushuncha bor edi.

Isyonchilar nomigagina Hindiston hukmdori, amalda esa toj-u taxtdan butkul mosuvu etilgan Bahodirshohni o'zlariga rahnamolikka da'vat etadi. 82 yashar qariya boshiga favqulodda jiddiy sinov tushadi.

Dehlini egallagan sipohiyilar boy zamindorlarning g'alla va mol-mulkini tortib ola boshlaydi. Shaharga in qurban ingliz josluslari esa boshboshdoqlik va vahimani avj oldiradi. Tarixchilar qo'zg'onchilarning eng mudhish xatosi inglizlarga qarshi keng ko'lama hujumga o'tilmay, mudofaa taktikasi qo'llanilganida, deya ta'kidlashadi. Sipohiyarning sust va tarqoq harakati inglizlarga Panjob va Bengaliyani qo'l ostida saqlab qolish, Dekandagi isyonni bostirish, Madoras va Bombaydag'i qo'shinlarni o'z itoatida ushlab turishga imkon berdi. Kalkuttadagi isyonni bostirish uchun Madoras, Bombay va Birmadagi kuchlar tashlandi. Shunday paytda Gvalior rojasiga Indura, musulmonlarga dushman ko'zi bilan qarovchi sikh rojalari – Patial va Jhinda ham mustamlakachilar tarafiga o'tib ketadi, afsuski. Hamma zamonlarda bo'lgani kabi inglizlar "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" degan aqidaga tayanib ish ko'radi.

## BAHODIRSHOHGA QILINGAN DAHSHTLI VAHSHIYLILKAR

1857-yil 19-sentabrda, to'rt oylik qamaldan keyin Dehli inglizlarga darvozalarini ochishga majbur bo'ladi. Dushman shaharda ko'z ko'rib, qulqoq

eshitmagan qirg'in, vahshiylik va talon-torojni uyushtiradi. Qo'zg'onlonning ikkinchi o'chog'i Lakhna markazi Audi shahriga inglizlar 100 ming kishilik qo'shinni safarbar etdi. Bu yerda urush 1858-yil fevral oxirida boshlanib, 19-martda inglizlar g'alabasi bilan tugadi. Bu yerda ham ommaviy qirg'in va talon-toroj amalga oshirildi. Mustamlakachilar bilan kurashda 650 000 hindistonlik musulmon sipohiyining shahid bo'lgani qo'zg'onlonning miqyosi va dahshatini yaqqol ko'rsatadi. Mag'lubiyatdan so'ng Bahodirshoh Zafar ular haqida "Bizning g'oziyalarimiz ko'ksida iyomon ifori ufurib turar ekan, Hindiston qilichi London taxi ustida yarqirab turaveradi", deydi.

Inglizlar Bahodirshohga o'z ixtiyorib bilan taslim bo'lsa, joni omon qolishini va'da qilishadi. O'g'illari Mirzo Mug'al, Mirzo Xizr Sultan hamda neverasi Mirzo Abu Baxt qo'lga olinib, kishanband holda shaharga aravada keltiriladi. Ingliz mayori Uilyam Xadson Dehli darvozasi oldida ularga aravadan tushishni va beligacha yalang'och bo'lismi buyuradi. Shundan so'ng shahzodalarni kiprik qoqmay otib tashlaydi va ularning kiyimidagi qimmatbaho tosh-u javohirlarni o'z qo'llari bilan yechib oladi. Uchala shahzodaning jasadi politsiya mahkamasi oldiga bir necha kun tashlab qo'yiladi. Vahshiyona qotillik ro'y bergan joy shu kundan boshlab "Xuni (qonli) darvoza" deb atala boshlagan. O'g'illari va neverasi halokatidan xabar topgan keksa shoh ushbu so'zlarni aytishga o'zida kuch topa oldi: "Alloha beedad shukurlar bo'lsinki, sohibqiron Temurbek avlodlari hamisha otalaridan oldinda yurganlar".

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, vahshiyilar shahzodalarni o'ldirish bilan kifoyalanganmagan. Ularning kesib olingan boshlaridan sho'rva qaynatib, Bahodirshoh va rafiqasiga berishgan. Er-xotin juda och bo'lgani bois ovqatdan tatina boshlaydi. Ammo bir luqmani og'izlariga solib, qayta quisib tashlaydilar. Mayor Xadson bechora ota-onaga: "Nega yemayapsizlar? Bu juda antiqa sho'rva, o'g'illaringizning go'shtidan pishirtirdim", deydi.

## SULOLANING TUGATILISHI VA SURGUNDAGI O'LIM

Qo'zg'onon bostirilgach, Qizil qal'ada Bahodirshoh 21 kun sud qilinadi. 21 nafar guvoh va yuzdan ziyyod fors hamda urdu tilidagi hujjatlar inglizcha tarjimada tinglandi. Hukmdorning eng yaqin mahrami, bosh vaziri va shaxsiy shifokori Hakim Ahsanulloxon

ham o'z jonini saqlash evaziga qarshi ko'rsatmalar beradi. Shoh o'ziga qo'yilgan ayblovlarni rad etgan.

Britaniyaliklar podsho munkillagan holida ham mustamlakachilarga qarshi kurashda butun hind xalqini birlashtiruvchi quadrati kuch bo'la olishini tushunib yetgandi. Shu bois Boburiylar saltanati tugatiladi. "Ost Indiya" kompaniyasi faoliyatini ham to'xtatilib, Hindiston Britaniya qirolli mulkiga aylantiriladi. Ayrim mulohazalardan keyin Bahodirshohga chiqarilgan o'lim hukmi umrbod surgunga almashtirilib, qattiq nazorat ostida ushlab turishga qaror qilinadi.

Surgun uchun Britaniya Hindistonining chekka hududida joylashgan Rangun (*hozirgi Yangon*) shahri tanlanadi. U yerga Bahodirshoh bilan rafiqasi Zinat Mahal, o'g'illari Mirzo Juvon Baxt (*xotini Shoh Zamon bilan*) va 13 yoshli Mirzo Shoh Abbas ketadi. Ulariga to'rtta xona berilib, to'rtta xizmatchi ham ajratiladi. Biroq uydagi shart-sharoitlar qamoqxonadan deyarli farq qilmas qalam, dovot va qog'oz saqlash qat'yan taqilangan edi. Eng yomon, podshoh oilasi tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yiladi. Xonadonga xizmatchilardan tashqari ahyon-ahyonda ingliz nazoratchilari kirib turardi. Bu xo'rlik va tahqirlar oqibatida shohning kelini Shoh Zamon butunlay ko'r bo'lib qoladi.

Sulolaning so'nggi hukmdori Bahodirshoh Zafar 1862-yil 7-noyabrda olamda o'tdi. Mayiti islam arkonlariga riox qilingan holda tuproqqa qo'yilgan bo'lsa-da, oxirgi yo'lga ikki o'g'ligina kuzatadi, xolos. Inglizlar bu voqeani ommadan pinhon tutishga harakat qilishdi. Rangun ahli bir necha kun o'tibgina shoh vafotidan voqif bo'ladi. Ammo bu xabar mahalliy musulmonlarga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq baribir keyinchalik ziyoratgohga aylanmasligi uchun Bahodirshoh qabrinib butunlay yo'qotishga harakat qilinadi. Yigirma yildan keyin shohning bevasi Zinat Mahal dafn etilayotganda ham hukmdorning qabrinib hech kim topib berolmaydi. Ikki yildan keyin Mirzo Juvon Baxt onasining yoniga qo'yiladi. Shohning neverasi Ravnaq Zamonning o'limi bilan bu yerda so'nggi qabr paydo bo'ladi. Oila a'zolaridan faqat kenja o'g'il Mirzo Shoh Abbasning hayoti nisbatan xayrla bo'lgan. U mahalliy tuijorning qiziga uylanib, 65 yil umr ko'radi. Uning avlodlari haligacha Yangonda istiqomat qiladi.

## TASODIFAN TOPILGAN QABR

Kapitan Nelson Devis xotiralarida shoh sag'anasini tasvirlab, bosh

hovlining orqa qismida joylashgani, qabri yer sathi bilan barobar tekislikdaligi, atrofi bambuk to'sig'i bilan o'ralgani, keyinchalik yovvoyi o'tlar qoplab olganini aytadi.

1903-yili hindistonlik bir guruh muslimonlar Bahodirshoh qabrinib ziyorat qilishga kelishadi. Qabr noma'lumligi uchun mo'ljal sifatida hudud chetidagi daraxt ko'rsatiladi. O'sha paytda Birma muslimonlari hindistonlik dindoshlari bilan birgalikda Britaniya hukumatiga xat yozadi. "Bahodirshoh inson va hukmdor sifatida katta hurmat-ehtiromga loyiq emasdir, ammo uning xotirasi o'chmasligi kerak", deyilgandi unda.

Keyinroq Rangun muslimonlarining so'nggi hukmdor sharafiga yodgorlik inshooti o'rnatish uchun yer so'rab qilgan murojaatiga mustamlakachi hukumatning rad javobi norozilik namoyishlarini keltirib chiqaradi. Shundan so'ng britanlar murosasi yolin tutib, 1907-yili "Bahodirshoh, Hindistonning sobiq podshosi 1862-yil 7-noyabrda Rangunda vafot etgan va shu yerga dafn etilgan" degan yozuvli qabrtoshni o'rnatishga ijozat bergan. Oradan birmuncha vaqt o'tib Zinat Mahal, Mirzo Juvon Baxt hamda Ravnaq Zamon sag'anasi ustida maqbara ko'tariladi. Erkaklar va ayollar uchun alohida namozxonalar quriladi.

1991-yili ariqlarni tozalash paytida ustalar ayollar namozxonasiga kiraverishda uzunligi 3 metr, eni 2 metr va chuqurligi 2 metr bo'lgan g'ishtin devorga duch kelishadi. Shohning suyak qoldiqlari shu asnoda topildi. So'ng Zinat Mahal maqbarasiga kiraverishda podshoh qabri ustida ochiq yodgorlik zali qurilgan. Hindiston hukumatini ko'magida bonyod etilgan inshoot 1994-yil 15-noyabrda ochilgan. Hozirda Bahodirshoh Zafar sag'anasi Shimoliy Hindiston va Pokiston muslimonlari hamda davlat rahbarlarining qutlug' qadamjosiga aylangan.

Bahodirshohdan salmoqli ijodiy meros qolgan. Ayrim g'azallarini o'qirkansiz, o'z qismatini yozib ketgandek tasavvur uyg'onadi kishida:

*Hech kimsa yoqmaydi, chirog'im o'chgan, Vatanim va xalqim meni unutgan, Bahorda kelmaydi gullar men kutgan, G'arib-u notavon, miskin, g'oratman.*

*Zafarman, seymaydi hech kim olamda, Kesilgan tomir-u ildizim chunki, Egasin yo'qotib qolgan motamda, Xaroba, choldevor bir imoratman.*

**Abdumajid AZIMOV**  
(oyina.uz)

Buyuk tarix

# AMIR TEMURning

# 313

# SARKARDASI

## SARIBUG'A

Jaloyir qavmining nufuzli beki, Amir Temurning safdoshi va maslakdoshi. Loy jangida Temurbek qo'mondonligida harakat qilgan qo'shining juvung'ari (*so'l qanoti*) qunbuli sardorligiga tayinlangan.

1370-yili Temurbek tomonidan devonbegi mansabiga loyiq topilgan. 1376–1377-yilning martida uchinchi marta Xorazm tomon yurishga otlangan Temurbek Saribug'a, Odilshoh, Xitoy bahodur va Elchibug'ani 30 ming kishilik cherik bilan Qamaruddinga qarshi jo'natgan. Temurning Xorazmga ketganidan viloyatni xoli topgan Odilshoh Xitoy bahodur hamda Elchibug'ani olib, Saribug'a bilan birlashadi va sohibqironga qarshi bosh ko'taradi.

1378-yilning ko'klamida Saribug'a va Odilshoh ikkalasi Sanalka Yod'och

nohiyasida O'zjand ustiga nogahon hujum uyuşhtirgan Jata hukmdori Qamaruddin huzuriga ketgan, fasod va fitnaga sherik bo'lgan. Ikki yildan so'ng Saribug'a sohibqiron qoshiga bosh egib kelgan. Amir Temur Saribug'aning gunohlaridan kechib, unga taalluqli yurtni boshqarish uchun bergan.

1383–1384-yilda Seiston hokimi Malik Qutbuddin sipohi bilan kechgan jangda Saribug'a Temurbek boshchiligidagi qo'shining so'l qanoti mang'layiga tayinlangan.

## SAROY MULK TAVACHI

Amir Temur beklaridan, adyutant. Anqara muhorabasida sohibqiron sardorligidagi qo'shin markazi (*g'o'l*)ning o'ng qanotida turgan.

## SAROYXOJA

Anqara jangida sohibqiron qo'mondonligidagi qo'shin markazi (*g'o'l*)ning o'ng tomonidan joy egallagan.

## SA'ID BARLOS

Amir Temurning urug'doshi. Mashhur lashkarboshi Abbos bahodurning qarindoshi, bek. 1405-yilda Isfahonda Rustam mirzo buyrug'iga ko'r bir ko'zi ko'r qilingan. Shu yili Sheroda turgan Pir Muhammad mirzo qoshiga kelgan. Buning qibatida ikki mirzo o'rtasida adovat sodir bo'ladi. Sa'id barlos 1409-yilda Pir Muhammad mirzoning farmoniga asosan Dizful rahbarligiga tayinlangan. Bag'dod tevarak-atrofini g'orat qilish amaliyoti chog'ida dardga chalinib, dunyodan o'tgan.

## SEVINCHAK

Iste'dodli sarkarda, ulug' bek. Seiston (1383), Mozandaron (1384), Xorazm (1388), Dashti Qipchoq (1389, 1391), Eron (1392), Iroq (1392), Kichik Osiyo (1402) yurishlarining faol qatnashchisi. Hirot fathida (*aprel, 1381*) Eygu Temur va Mubashshir bilan birga birinchilardan bo'lib shaharga kirgan. Seistonning ikkinchi yirik shahri Bo'stga yuzlangan Temurbek Tuman Nekudariyning Kach va Mekuran

(Eron va Hindiston chegarasidagi qal'a va o'lka) yo'lida qaroqchilik bilan shug'ullanib, karvonlarga zo'ravonlik qilayotgani xabarini eshitgach, o'n yetti yoshga kirgan Mironshohni Muhammadbek ibn Sher Bahrom, Shayx Ali ibn Arg'un barlos va Sevinchak bahodur hamrohligida yo'lto'sarlarga qarshi jo'natgan.

1389-yilning martida ayg'oqchilik (*razvedka*)ga yuborilgan Sevinchak Temur Qutlug' o'g'lon va Usmon bahodur bilan birgalikda To'xtamish qo'shini joylashgan manzilni aniqlagan. Qunduzcha jangida Sevinchak Umarshayx mirzoning Sulton Sanjar, Usmon va Hasan Jondor singari sarkardalari qatori qo'shining o'ng qanoti (*barang'ar*)da turgan.

1393-yilning 19-yanvarida Iroq va Fors tomon azimat qilgan sohibqiron Muhammad Sulton va Pirmuhammad mirzolarga Shayx Ali bahodur, Sevinchak bahodur, Temurxoja ibn Oqbug'a, Mubashshir va o'zga beklarini qo'shib, ilg'or tarzida Qazvin tomon jo'natgan.

Sohibqiron ikkinchi bor To'xtamishxon ustiga cherik tortib, uni Terek daryosi yaqinida mag'lub etgan kezda Sevinchak Pirmuhammad mirzo hukmiga binoan Hasan chag'davul va Isabek bilan birga Sheroda qolgan edi. Katur qal'asini zabit etishda matonat ko'rsatgan.

Panipat muhorabasida nomdor bek qo'shining Sulton Mahmudxon rahbarligidagi so'l qanoti (*juvung'ari*) sarkardalari qatoridan o'r'in olgan. 1399-yilning yanvarida oliy hukmga ko'ra Rustam mirzo Sheroda turgan og'asi Pir Muhammad qoshiga yuborilgan kezda Sevinchak ikki ming askari bilan unga hamrohlik qilgan.

1400-yilning 22-avgustida buyruqqa ko'ra Sevinchak Sulaymonshoh, Jahonshoh, Shayx Nuruddin va Sayyidxoja kabi ulug' beklar safida Sivosdan ortga chekinayotgan Yildirim Boyazidning o'g'li Kurashchini ta'qib etish vazifasiga belgilangan.

Sevinchak Shomdag'i Hama shahri va Xo'ms qal'asini qo'lga kiritish uchun tayinlangan Pirmuhammad ibn Umarshayx mirzo, Abubakr mirzo va Sulaymonshoh boshchiligidagi jo'natilgan qo'shin safidan joy egallagan. 1401-yilning 5-yanvar kuni Misr podshohi Faraj sardorligidagi Shom (*Suriya*) lashkariga qarshi Damashq sahrosida yuz bergan to'qnashuvda Shohmalik, Sayyidxoja va Sevinchak markaziy qism (*qo'l*)ning ilg'ori (*hiravul*)

ga qo'yilgan. Bag'dod fathida (9-iyul 1401) Sevinchak Sulton Mahmudxon qo'l ostidagi qo'shin sarkardalari safida turgan.

Anqara jangi chog'ida Sulaymonshoh, Yodgor Andxudiy, Rustam Tag'oybug'a, Davlat Temur va o'zga beklar bilan birga Shohruk va Xalil Sulton qo'mondonligidagi barang'ar (*Nizomiddin Shomiy: juvung'ar*)da joylashgan.

1403-yilning 11-fevralida sohibqiron farmoniga muvofiq bir qancha nomdor lashkarboshilar safida Egridir qal'asini fath etishda faoliyat ko'rsatgan. 1403-yilda Iroq Arab viloyatlari sohibqiron tomonidan Abubakrga inoyat qilingan kezda Husaynbek barlos, Poyanda Sulton barlos, Sulton Sanjar, Davlatshoh inoq va o'zga beklar qatori mirzoga mulozimlikka tayinlangan.

1404-yilning iyunida Sevinchak Iskandar Shayxiyi ta'qib etish vaqtida uning o'g'li va qizi va xotinini asir qilgan. Temurbek vaqtida ulug' beklik darajasiga ko'tarilgan Sevinchak 1405-yilning ko'klamida Ajam Iroqining chegarasidagi Zanjonarudda dam olayotgan Umar mirzo qoshiga kelgan va unga otasi Mironshoh mirzo hamda akasi Abubakr mirzoning itoat maqomida ekanligidagi xabar bergen.

## SULAYMONSHOH

Dovudbek dug'latning o'g'li. Atoqli sarkarda, ulug' bek.

1389-yil boshida Amir Temurning O'ljay Turkon og'odon tug'ilgan qizi Sulton Baxt beginiga uylangan. Eronga uyuşhtirilgan uch yillik yurish vaqtida (1386–1388) Abbosbek bilan Movarounnahr boshqaruviga mas'ul etib tayinlangan. 1389-yilda Turkiston viloyati zabtiga muqarrar qilingan. 1390-yilda Jataga jo'natilgan yigirma ming kishilik qo'shinga rahbarlik qilgan.

1391-yili Qunduzchada To'xtamish lashkari bilan sohibqiron cherigi o'rtasida yuz bergan muhorabada ilg'or qism (*mang'lay*) qo'mondoni etib tayinlangan.

Hindiston, Eron, Halab, Misr, Gurjiston va Bag'dod hamda Kichik Osiyoga qilingan harbiy yurishlarning faol qatnashchisi. Chunonchi, Halab uchun kechgan jangda 1400-yili Sulaymonshoh Mironshoh mirzo, Shohruk va Shohmalikbek qatori qo'shining o'ng qo'lidan joy egallagan. Anqara jangida ham qo'shining o'ng qanotidan o'r'in olgan, Oqshahr va Qorahisorni egallah amaliyotlariga boshchilik qilgan.

Nomdor sarkarda sohibqiron vafotidan so'ng ma'lum muddat Shohruk mirzo itoatida bo'lgan. Shohruk Sulaymonshohga Saraks viloyatini suyurg'ol sifatida tortiq etgan. Amirkorda Sulton Husayn qatlidan keyin Shohruk mirzo bilan Sulaymonshoh o'rtasidagi munosabatga darz ketgan. Sulaymonshoh 1405-yilda Kalot qal'asini tark etib, Samarqandga, Xalil Sulton mirzo huzuriga yo'l olgan. 1406-yilning 21-fevral kuni Nasaf atrofida Pir Muhammad mirzo va Xalil Sulton mirzo boshliq sipohlar o'rtasida kechgan jangda Sulaymonshoh Xalil Sulton mirzo qo'shinining chap qo'liga qo'mondonlik qilgan. Ushbu to'qnashuv Pir Muhammad mirzo lashkarining mag'lubiyati bilan yakunlangan. Shu yilda Sulaymonshoh amir Arg'unshoh va Ahmad chuhra bilan birga Jayhun daryosidan o'tib, Shibirg'on va Andxud viloyatiga kirgan. Ushbu voqeadan xabar topgan Shohruk mirzo ulkan sipohga bosh bo'lib, bularga qarshi zudlikda yurishga chiqqan.

**Hamidulla DADABOYEV,  
Mudofaa vazirligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi a'zosi,  
professor**



# “QAYTMAGAYMAN, HECH QO'RQMAYMAN BU YO'LDAN”

(toshkentlik jadid G'ozim Yunusning shonli hayoti haqida)

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib musulmon dunyosi tobora globallashib, rivojlanib borayotgan Yevropa taraqqiyoti va sanoatidan ortda qola boshladi. Natijada, islam olamida an'anaviy musulmon ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, Yevropa ilm-fanini o'rganish va amaliyotga joriy etish to'g'risida bong uruvchi ziyoli taraqqiyarvarlar guruhi shaklandi.

Ushbu harakatning yuzaga kelishi, shakllanishi, ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanishida Abdunosir Kursaviy (1776-1812), Shahobiddin Marjoniy (1818-1889), Jamoliddin Afg'oniy (1839-1897), Ismoil Gaspirali (1851-1914), Olimjon Barudiy (1857-1921), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Abdulla Avloniy (1878-1934), Tavallo (1882-1939), Abdulla Qodiriy (1894-1938) kabi ulug' shaxsiyatlar o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar. Ana shunday taraqqiyarvar jadidlar orasida G'ozim Yunusning (1887-1942) ham alohida o'rni bor.

G'ozim Yunus 1887-yilda Toshkent shahri 3-Oshunduzar mahallasida Mahamatyunus va Zulfiya otin oilasida dunyoga kelgan. G'ozimuhammad ilk ta'limni onasining qo'lida olib, xatsavodini chiqaradi. Bu to'g'rida uning o'zi quydigilarini yozadi:

**Ibtidoyi tahsilim eski maktabda bo'lib, yoshim 15 ga kirganda Baroqxon madrasasina tahlisga kirub, 8 yil istiqomatimda "Avvali ilm"dan boshlab, "Aqoid"ga yetdim".**

Olim Sirojiddin Ahmad G'ozim Yunusning madrasasi davom ettirishiga iqtisodiy imkoniyati yo'l qo'ymanagini ta'kidlasa, G'afur Umurzoqov aksincha, u madrasada tahsil olib, fors, arab, turk tillarini mukammal egallaganini, o'qishni tamomlagach unga "mulla" unvoni berilgani, hatto mudarrislikka ham taklif etilgani, biroq bu taklif G'ozim Yunus tomonidan bosmaxona ochishga doir rejalarini sabab rad etilgani haqida yozadi. G'ozim Yunusning o'g'li To'lqin G'oziyev o'z xotiralarida G'ozim Yunusni otasi bilan ustachilik qilganini qayd etgan. Biroq G'ozim Yunus nashriyotchilik faoliyati bilan shug'ullanganligi, Laplandiyaga sayohatni amalga oshirib, u yerda matbaachilik ishlari bilan yaqidan tanishganligi, keyin Ozarbayjonga borib "Nashriyoti G'ozim Yunus" uchun harf

qoliplarini olib kelganligini hisobga olsak, uning shunchaki mardikor oilasidan chiqqanligi shubha ostida qoladi. Negaki, yuqoridagi ishlarni amalga oshirish uchun G'ozim Yunusda mustahkam moddiy baza mavjud bo'lgan. Qolaversa, bugungi kunda To'lqin G'oziyev shaxsiy arxivida saqlanayotgan va bevosita G'ozim Yunus tomonidan qurilgan uyning surati ham uning moddiy jihatdan ancha boy bo'lganligini ko'rsatadi.

To'lqin G'oziyev o'z xotiralarida otasi G'ozim Yunusni suvoqchi usta sifatida ishlaganini qayd etishi bilan birga, xotira daftarining boshqa bir o'rniida **"Bolaligimda uyimizda xizmatkorlar ishlari, onamni esa foytun aravada olib yurishar edi"**, deb yozadi. Bu boroda xulosa qilish mumkinki, G'ozim Yunus o'ziga to'q va boy oiladan bo'lib, hech qachon otasi bilan suvoqchilik kasbi bilan shug'ullanmagan va iqtisodiy jihatdan qiyinchilikda yashamagan.

G'ozim Yunusning o'z tarjimai holini bu tarzda o'zgartirishiga sabab davr siyosati bo'lib, bolsheviklar hukumati yo'qsullar mamlakatini qurmoqchi va tabiiyki bunday mamlakatda o'ziga to'q va boy odamlarning bo'lishi mumkin emas edi. Shu boisdan ham G'ozim Yunus davr taqozosini bilan o'zidan "kambag'al" shaxsni yasashga majbur bo'ldi. Adibning avlodlari qo'lida saqlanayotgan "Otamg'a marsiya" she'rida ham G'ozim Yunus otasidan erta yetim qolganligini qayd etgan. Shuningdek, G'ozim Yunus madrasada bir muddat mudarrislik faoliyati bilan ham shug'ullangan, diniy ilmlarda zamonasining ilg'or vakillaridan biri bo'lgan.

Turkistondagi jadidchilik harakatining rivojlanishida G'ozim Yunus ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Uning XX asr boshlaridagi taraqqiyarvarlik harakatini ijobjiy baholagan holda aytish mumkinki, u ham boshqa aksariyat taraqqiyarvarlarning maslak va

maqsadlari yo'lida xizmat qildi. U bir tomondan turli xil bid'at va xurofotlarga chirmashib ketgan islamni pok va musaffo holatga keltirish lozimligini ta'kidlasa, boshqa tomondan xalqni yangi usul maktablarida o'qishga targ'ib etdi. G'ozim Yunus ham aksariyat ziyyolilar kabi eski usul maktabları o'z umrini o'tab bo'lganini, undan endi hech qanday foya yo'qligini, aksincha qaytaga zarar keltirishini ta'kidladi.

G'ozim Yunus islam dinining yetuk vakillari bo'lmish ulamolarga murojaat qilib, ulardan **Turkiston xalqlarini uyg'otishni, jaholatdan ma'rifatga yo'naltirishni**, turli xil fitna va fasodlarga barham berishni so'rар ekan, ularning asl vazifalari firqalarga bo'linib olib janjallahishda emas, balki **millat va xalqni ma'rifatli qilishda ekanini ta'kidlaydi**.

G'ozim Yunusning taraqqiyarvarlikka doir g'oyalari, ayniqsa u faoliyat ko'rsatgan "Ishchilar dunyosi" jurnalidagi maqolalarida yaqqol namoyon bo'ldi. Jurnalning birinchi sonida bosilgan "Maslak va maqsad" maqolasida G'ozim Yunus: "Maslagimiz prog'rammasini to'liq amalga oshirish, unda shariati nabaviyada ustuvor turib qo'l uchi bilan kun ko'ruchchi faqir xalqimizni moddiy va ma'naviy jihatlarini yaxshilamakka intilish, shu yo'lda syezdlar, yig'inlar tashkil etish, ish borishi bilan ishchilar uchun maktablar, dorilfununlar, qiroatxonalar, shifoxonalar va madaniy muassasalar bunyod etish, sanoatni yo'nga qo'yish, siyosatda chor mikroblarini surib tashlab o'rniga turkislom siyosati o'rnatmoq yo'lida jon fido etmakdir, vassalom" deb o'zining va davr taraqqiyarvarlarining maqsadini ochiqlaydi.

...1917-yilda tashkil etilgan Turkiston Muxtoriyatini bolsheviklar hukumati harbiy kuch bilan yo'q qilib tashlashdan oldin, avval xalq o'rtasida uning obro'-e-tiborini parchalashni maqsad qilgan edi. Buni albatta ko'philik davr ziyyolilari singari G'ozim Yunus ham chuqur anglagan. Shu boisdan ham u: "...muhtaram ulamolarimizdan, suyuqli yoshlarmizdan o'tinamizki, bundan buyon har ikki taraf ham sof bo'lib harakat qilingiz. Ulamolarimiz qora xalq bizning orqamizda deb Turkistonga uyat keltiradigan ishni ishlamasunlar. Yoshlarimiz ham o'z foyda-zararini ajrata olmagan xalqimiz uchun kecha-kunduz rahmat o'rniga la'nat eshitib, boshdan oyoq kufr pechatni bilan pechatlanib, oxiri o'rtada biror qonli voqeя bo'lib, badbaxt Rusyaning ahvoli Alloh saqlasun, bizim Turkiston boshiga tushmasun deb qo'rquamiz" deb yozgan holda, xalqni Muxtoriyatni asrab qolish yo'lida o'zaro ixtiloflarni bas qilib birlashishga chaqirdi. G'ozim Yunus quruq qog'ozda Muxtoriyat deb qo'yilgani bilan tuzilib qolinmasligini, buning uchun Turkistonda yashovchi olti yoshdan oltmis yoshgacha chin dildan istashi va bu yo'lda jiddu jahd qilishi lozimligini urg'ulab, xalqni davlatchilikka doir masalalarni tinch va demokratik tamoyillar asosida ovoz berish yo'li bilan hal etishga chaqiradi. Biroq muallif eng avvalo ana shu ovoz berish madaniyatini shakllantirish lozimligini qayd etib, bu boroda Turkiston xalqining siyosiy madaniyatni o'ta sayoz ekanligini ochiqoydin ta'kidlaydi:

"Madaniy millatlar kabi qo'l ko'targanda masalani hal bo'lishini bilmasmiz, Eshmuhammad qo'l ko'tarsa, Toshmuhammadboy qo'l ko'taradik. Ulamo qiyofatida bir kishi minbarga chiqib, bizlarga oq kerak desa, "Ha, taqsir, oq kerak", agar qora kerak desa, "Ha, taqsir, albatta qora kerak" deb qichqiradir."

G'ozim Yunus o'zining yuqoridagi so'zlari bilan xalqning ijtimoiy-siyosiy ongingin qay darajadaligi xususida ham ma'lumot bermoqdaki, muallifning istagi

kim qayoqqa yetaklasa ketaveradigan mayjudotni emas, balki mayjud holatni va taraflarning o'zaro da'volarini tahlil qila oladigan, shundan so'nggina xulosa chiqara oladigan shaxslar ommasini yaratish nechog'lik zarur ekanligiga ishora qiladi.

G'ozim Yunus o'zining davriy matbuot sahifalarida chop etilgan she'rlari orqali ham jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni tanqid qilib, insonlarni ushu muammolar bilan kurashga da'vat qildi. Adib o'zining "Poraxo'r tilidan", "Bo'Isam edi", "Poyezdda ko'r", "Bir munofiq tilidan", "Topar cho'pchaklar", "Yosh savdogar tilidan", "Ustolparastlik maslagi" kabi she'rlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni hajvga oldi.

G'ozim Yunusning "Poyezdda ko'r" she'ri o'zidan o'zi yozilib qolmagan. Bu she'rning zamirida Turkiston xalqining huquqsizligi, tengsizligi masalasi yotibdi. Negaki, XX asrning 20-yillarda Turkiston mahalliy xalqining poyezdлarda turli xil diskriminatsion holatlarga duch kelib turishi tez-tez yuz berib turgan. Buni o'sha davr matbuotida chop etilgan maqolalaridan ham bilib olish mumkin. Masalan, Ibrohimjon Oxunovning temir yo'llarda yerlik xalq vakillarini wagonlarga yo'latmay, haqorat qilish hollariga bag'ishlangan "Mustamlakachilik emasmi" maqolasining o'zi vaziyat qay darajada ayanchli ekanini anglashga yordam beradi. Qolaversa, G'ozim Yunusning o'zi ham Cho'lpon bilan birga 1922-yil 19-mart kuni Buxoroda bo'lib o'tgan Turkiston jumhuriyati o'zbeklarining II madaniyat va ma'rifat qurultoyidan qaytayotganida Ibrohimjon Oxunov nazarda tutgan "Mustamlakachilik"ning achchiq ta'mini tatib ko'rgandi.

G'ozim Yunus Turkiston o'lkasidagi muammolarning asosiy sababchilar sifatida lavozimini qattiq sevguvchi va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan mutlaqo qiziqmaydigan amaldorlarni aybladi. Uning "Ustolparastlar maslagi" she'ri shu mavzuga bag'ishlangan. Shoiring ushu she'ri ham o'tirgan "ustuli" (lavozimi) uchun har qanday jirkanchlikni qilishga tayyor bo'lgan amaldor tilidan aytilgan bo'lib, uning uchun yagona maqsad nima qilib bo'lsa ham lavozimini saqlab qolish, fikr-u zikri poraxo'rlik qilib butun himmatini shu yo'lda sarflashdan iboratdir. G'ozim Yunus tasvirlagan amaldor shu darajada ayyorki, u xalqning oldiga chiqqanda tilida "xalqim, xalqim", "jonim fido" kabi so'zлarni aytib barchaning ko'zini shamy'alat qiladi, yolg'iz qolganda esa uning asl basharasi ochilib, o'ziga ishongan odamlarning ustidan kuladi.

Afsuski, G'ozim Yunus ham boshqa aksariyat o'zbek ziyyolilari kabi 1937-yil 6-avgustda qamoqqa olinadi. Biroq tergovchilar tomonidan qo'yilgan ayblovlarining birortasi ham o'z tasdig'ini topmasa-da, adib, publisist, o'z davrining ulkan va mohir tashkilotchisi G'ozim Yunus 1938-yilda Rossiyaning Vologda shahriga surgun qilinadi va u yerda 1942-yil 5-mayda ochlikdan vafot etadi.

G'ozim Yunus 1957-yil 22-yanvarda O'zbekiston SSR Oliy Sudining qarori bilan oqlangan.

G'ozim Yunus taraqqiyarvar inson sifatida hech qanday to'siqdan qo'rmay, mardonavor qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Adibning o'zi bu to'g'rida quyidagi misralarni yozganida qanchalik haq edi:

*Qaytmagayman, hech qo'rqiymayman  
bu yo'ldan,  
Mayli bo'lsun ko'z oldimda mone'lар.  
Yo'lim to'sib tig' o'qtalsin yog'iylar,  
Umid uchun kechmak kerak bu cho'ldan...*

**Muslimbek ALIJONOV,  
Qatag'on qurbanlari xotirasи  
davlat muzeyi yetakchi  
ilmiy xodimi**

Ajdodlar jasorati – yoshlarga ibrat

# MIRZACHO'LLIK "CHO'LQUVAR" QAHRAMON

Ikkinci jahon urushi qatnashchisi Abdurahmon Sultonov Farg'ona viloyatining Kirov (*hozirgi Beshariq*) tumanı Navkat qishlog'ida tug'ilgan. 10 yoshidan ota-onasi bilan Mirzacho'l hududiga ko'chib kelgan.

Abdurahmon Sultonov Mirzacho'lni o'zlashtirishni boshlagan birinchi "qaldirg'och"lardan hisoblanadi. U 14 yoshidan "cho'lquvan" sifatida faoliyatini boshlagan. Toshkent viloyati Mirzacho'l tumanida turli vazifalarda mehnat qildi. Ikkinci jahon urushi boshlanganida hamma qatori Abdurahmon Sultonov urushga borish uchun o'z xohishi bilan harbiy komissariatga boradi. Lekin Abdurahmon Sultonovga jamoa xo'jaligida yaxshi ishlagni uchun unga "bron" (*urush orti mehnat frontida olib qolish uchun beriladigan maxsus hujjat*) berilgani uchun urushga chaqirilmaydi.

Abdurahmon Sultonov "bron"dan voz kechadi va 1942-yil 9-mart kuni o'z xohishi bilan harbiy xizmatga chaqiriladi. Harbiy xizmatni 28-armiya tarkibida oddiy o'qchi sifatida boshlaydi. Fashistlarga qarshi endigina jangga kirgan Abdurahmon Sultonov urush harakatidagi 28-armiya safida 1942-yil 10-apreldan 31-iyulgacha bo'ladi. Birinchi jangini Zaporoye oblastining Novogupalovka qishlog'idan



boshlaydi. U juda og'ir bo'lgan janglarda qatnashadi. Abdurahmon Sultonov xizmat qilgan harbiy qism ham fashistlar qurshoviga tushib qoladi, lekin qurshovni mardlarcha yorib chiqadi. Ammo Xarkov ostonalarida katta talafot ko'rgan 28-armiya tarqatilib yuboriladi.

Endi Janubi-g'arbiy front tarkibidagi alohida harbiy qo'shinda qolgan Abdurahmon Sultonov fashistlarga qarshi Stalingrad uchun bo'lgan iyul-noyabr oyalaridagi himoyaviy janglarda qatnashadi.



Ikkinci jahon urushida tub burilish yasagan Stalingrad jangi 1942-yil 17-iyulda boshlangan. Bu urush hududiga nafaqat Stalingrad, balki uning atrofidagi hududlar ham kirardi. Abdurahmon Sultonov Stalingrad jangi hududi hisoblangan Voronej oblastidagi Olxovatka, Boguchar, Kantemirovkalarda, Rostov oblasti va Qalmog'iston hududida 1942-yil 18-noyabrgacha davom etgan himoyaviy janglarda faol qatnashdi.

Abdurahmon Sultonov xizmat qilgan 156-alohida o'qchi brigada Qalmog'iston markazi hisoblangan Elista shahrini 1942-yil 31-dekabr kuni va 1943-yil yanvar oyida boshqa aholi punktlarini va Rostov oblastining janubi-sharqiy hududini fashist gazandalaridan ozod qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu shiddatli janglarda Sultonov minomyotchilar bo'limi komandiri sifatida jang maydonini oldingi qatorlarida ishtirot etdi. Serjant Sultonov Abdurahmon xizmat qilgan 156-alohida o'qchi brigadasi 14-22-yanvar kunlari Rostov oblastidagi muhim strategik jihatga ega bo'lgan Salsk shahrini ozod qilish uchun jang olib boradi.

1943-yil 20-yanvar kuni Rostov oblasti Salsk rayonidagi Budyoniy nomidagi Ot zavodi qishlog'i yonida tinimsiz, shiddatli bo'lib o'tgan janglarda serjant Abdurahmon Sultonov komandirlik qilgan minomyotchilar bo'limi janglarning oldingi chizig'ida qatnashishadi. Jang quyosh chiqishi bilan boshlanib, kun bo'yi otishma va portlashlar bilan o'tadi. Fashistlar qattiq qarshilik qilishadi. Faqat kechqurunga borib, qishloqda dushman butunlay tugatiladi.

Navbatdagi janglardan birida Abdurahmon Sultonov fashist snayperi tomonidan otilgan o'qdan og'ir yaralanadi. O'q uning o'ng bilagiga tegadi. Harbiy jarrohlar uning o'ng qo'llini butunlay kesishmoqchi bo'ladi. Umuman

maydalanim ketgan o'ng yelka suyagini tirsak bo'g'inidan 12 sm tepe qismini olib tashlaydilar, zararlangan nerv tizimlari, qon tomirlari va mushak to'qimalarining faoliyatini tiklash operatsiyasini o'tkazadilar. 22-yanvarda serjant Abdurahmon Sultonov xizmat qilgan brigada tomonidan Salk shahri ozod qilinadi.

Ikkinci fevralda Stalingrad jangida fashist bosqinlari katta qurshovga tushib, taslim bo'lishadi. Stalingrad g'alabasini serjant Abdurahmon Sultonov o'zi davolanayotgan Saratov shahrida joylashgan harbiy evakuatsiya gospitalida kutib oladi. U bir necha bor jarrohlik amaliyotini o'tkazdi, tiklanish uchun davolandi. 1943-yil iyun oyining o'rtalarida urushdan ikinchi guruh nogironi bo'lib, O'zbekistonga qaytadi.


Serjant Abdurahmon Sultonovning urush davrida qilgan qahramonliklari esdan chiqariladi. Urush davrida biron-bir orden yoki medal bilan taqdirlanmaydi. Ammo haqiqat baribir qaror topdi. 1947-yilda "Qizil Yulduz" ordeni va "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

Urushdan qaytib Abdurahmon Sultonov Toshkent viloyati Guliston tumanida (*hozirgi Sirdaryo viloyatiga qarashli*) yana mehnat faoliyatini davom ettirdi. U Guliston tumanidagi "Krasnyy Vostok" (*hozirgi Dehqon posyolkasi*), "Krasnaya Zarya" (*hozirgi Uch qahramon*) jamoa xo'jaligida brigadir, rais muovini, partiya tashkiloti sekretari, bosh agronom bo'ldi.

Abdurahmon Sultonov Ikkinci jahon urushidan keyingi qiyin sharoitlarda fidokorona mehnati bilan Mirzacho'lni o'zlashtirishga o'zingiz katta hissasini qo'shdi. Fidokorona mehnatlari evaziga 1950-yilda Sotsialistik mehnat qahramoni bo'ldi. Abdurahmon Sultonov 1977-yilda nafaqaga chiqdi. Lenin, ikki marta "Mehnat Qizil Bayroq", "Hurmat belgisi" ordenlari va bir necha medallar sohibi bo'ldi.

**Abdurashid KUZIBAYEV**





etilgan "Ravot qashqirlari", 1933-yil aprelida nashr etilgan "Tarbiya ishlariga diqqat", 1935-yil may oyida e'lon qilingan "Eski kitoblar savdosini qo'lga olaylik" publitsistik maqolalari shular jumlasidan.

Qodiriy 1927-yilda "Ravot qashqirlari" nomli filmiga yozilgan xuddi shu nomli taqrizida film tomoshasidan qanoatlangan holda qaytganini aytadi. Bosh rollarni ijro etgan aktyorlar ijrosiga to'xtalar ekan: "havaskor bo'la turib ham durust ado qilg'an o'zbek artistlarimiz o'zlariga yaxshi umid bog'ladilar. Ayniqsa, Sodiqda talant mo'1 ko'rindi... Boy ro'lidagi o'rtoqning bir muncha ortdirib, tuzlabroq qilg'an harakatlari sezilish bordi. Kambag'al dehqon ro'lidagi "ota"ning tipi juda muvaffaqiyatli saylang'an", deb yozadi.

1933-yilda chop etilgan "Tarbiya ishlariga diqqat" nomli maqolasi esa Qodiriyning millatning bir ziyyolisi sifatida VKP markazqo'mining adabiy-badiiy tashkilotlarni qaytadan qurish haqidagi qarorning bir yilligi munosabati bilan yozilgan bo'lib, ushbu qarordan yetarlichha foydalana olmayotganidan norozilik kayfiyati seziladi: "Yosh yozg'uchilarimizg'a adabiy tarbiya berish bobida hanuz qat'iy bir harakatimiz yo'q; ularni adabiyot tarixi, adabiy

matoh bo'lib yotgan qimmatli asarlar juda ko'p. Bular egasini topolmay, chang-tuproq orasida ko'milib yotadi. Holbuki, kundan kunga soni o'sib turgan ilmiy xodimlarimiz uchun ular juda kerak. Undan tashqari, savyasi o'sib, madaniy darajasi ko'tarilib turgan omma ham yangi va eski kitoblarga talabgor".

Abdulla Qodiriy Moskvada eski kitoblar savdosini bilan shug'ullanadigan o'nlaracha davlat do'konlari borligini, butun O'zbekistonda esa loaqlar kioska ham yo'qligini kuyunib yozadi. Shunday ekan, O'znashr tajriba uchun Toshkentda bunday do'kon ochishi mumkinligini, maorif komissarligi ham yordam berishi mumkinligini hamda jamoat nazorati ham ta'min etilajagini yozadi. Adib bunday do'konlarning ochilishidan qator imkoniyatlar paydo bo'lishini maqolasi so'ngida keltiradi: "Bunday bir magazin ochilganda qadimgi bosma va yozma asarlarni tanish, ularni kerakli kishilar va muassasalar qo'liga to'plash mumkin bo'lganidek, so'nggi vaqtarda chiqib tarqalib ketgan va qaytadan bosilmagan kitoblarni ayriboshlab turish uchun ham imkoniyat hosil bo'ladi".

Hozirgi kunda Abdulla Qodiriyning hayot yo'li, adabiy merozi, publitsistikasi va fojasisini ko'rsatib berish uchun sharoit, muhit yaratildi. Qodiriyning badiiy asar yozish texnikasi, portret yaratish mahorati keyingi avlodlar uchun ijod maktabi bo'lib qolganidek, uning publitsistikasi ham hozirgi kun yoshlariga xuddi shunday maktab vazifasini o'taydi. Shuningdek, Qodiriyning publitsistik faoliyatini milliy madaniy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiq qilish kelajak avlod Qodiriyshunoslari oldida turgan katta vazifalaridan hisoblanadi.

**Oydin TURDIYEVA,**  
filologiya fanlari  
doktori, dotsent.  
**Oysha SHUKUROVA,**  
O'zJOKU o'qituvchisi

# QODIRIY MAQOLALARIDA ADABIY TARBIYA

Matbuot va davriy nashrlar ma'rifatparvarlarning fikr va so'z aytishi uchun ilk minbar vazifasini o'tagan. O'zbek adabiyotida roman janrining asoschisi, dramaturg va tarjimon Abdulla Qodiriy dolzarb, muhim ijtimoiy masalalarni matbuotga olib chiqqani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Adibning ijodiy merosining kattagina qismini ijtimoiy, madaniy sohalarga munosabati aks etgan publitsistik asarlar tashkil etadi. Shuningdek, Qodiriy publitsistikasi o'z davrining tarixiy hujjalari hisoblanadi. Qodiriy o'zi yashab turgan davr, jamiyat hayotining dolzarb muammolari va hodisalarini to'g'risida bundan tashqari siyosiy va ijtimoiy hayot masalalarini muhokama qilishga bag'ishlangan qator maqolalar yozdi.

Qodiriy publitsist sifatida "Oina" va "Mushtum" jurnallari, "Sadoyi Turkiston", "Najot", "Ulug' Turkiston", "Ishtirokiyun", "Inqilob" gazetalaridagi chiqishlari natijasida Turkiston o'lkasida jaholatga qarshi kurash, ommani, ayniqsa yosh avlodni har tomonlama ilm-ma'rifikati qilib tarbiyalashga intilish harakatining kuchayishini ta'minladi. Abdulla Qodiriyning "Qizil O'zbekiston" gazetasida 1927-yil aprel oyida chop

Shu bilan birga publitsist filmga tanqidiy munosabat ham bildirib o'tgan. Xususan uning: "Nikoh kuni boynikiga majburiyat va zo'rliq ostida jo'naydurg'on Karomat dadasidan fotiha olg'ach, boshqa xotinlar bilan birga chopib aravaga chiqadi. Holbuki, o'zbekning keksa boyig'a yoki o'zi xohlalamag'an kishiga berilgan qizi tixirliq bilan, xotinlarning zo'ri, sudrashi bilan aravaga yuzlanadi" fikrlari Qodiriyning nechog'li zukko kino munaqqidi bo'lganidan dalolat beradi. Taqriz so'ngida Qodiriy o'zbek kinosidan kutilayotgan umidlarini yozadi: "Menga qolsa, o'zbek davlat kinosini chin muvaffaqiyatga olib boradurg'an narsa mumkin qadar ssenariya yozuvchilarni o'zbeklardan yetishtirish va hozircha bo'lsa yovrupolik ssenaristlar yoniga o'zbeklarni tirkab qo'yish, artist va artistkalarni o'zbeklardan tarbiyalashdir".

Xususan, eski kitoblarning madaniy meroslar ichida tutgan o'rni beqiyosligini ta'kidlagan adib: "Jumhuriyatimizning turli burchaklari, har kimalning qo'lida bekinib, ortiqcha

Maxtumquli tavalludining 300 yilligiga

# VATANPARVAR

## shoirning ezgu niyatlar

Barcha odam uchun, turli qavmelat uchun Vatan tushunchasi muqaddas va qadrlisi hisoblanadi. Turli xalq so'z san'atkori kari qalamida Vatanni sevish va qadrlash tuyg'usi umumiyyati mohiyati jihatdan bir xil ohangda, bir xil mehr-muhabbatda tasvirlanadi hamda ulug'lanadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik tarbiyasining nazariy-amaliy mohiyati hamma zamonlarda, hamma siyosat yoki barcha san'atkori olim talqinida ham mohiyatan mushtarakdir.

Maxtumquli she'riyatida, uning shaxsiy hayoti misolda vatanparvarlik axloqi, o'ziga xos jozibasi, alohidaligi bilan e'tiborni tortadi. Maxtumquli ulkan va bepoyon Turkman sahro bag'ridagi kichik Hojigavshon qishlog'ida tug'ilgan. Ammo u umrinning ko'p qismini olis-yaqin yurtlarda, sayohatlarda hamda ta'lim, o'qish, izlanish maqsadlarida o'tkazgan. Qanday bashang yurtlar, mumtoz shaharlar, ko'rkan ellar bo'lmasin, baribir Maxtumquli uchun o'zining olis sahrosi, kichik ovuli qadri va aziz bo'lgan.

Maxtumquli Sharq adabiyotida ma'lum an'anaga ega harfiy san'at usulini, arab harflarining har biri o'ziga xos muhim ilohiy-irfoniy ma'noga oid ekanligini yaxshi bilgan. "Bitmakh kerak" nomli harfiy san'at usulining go'zal namunasi bo'lgan g'azalida shoir arab imlosidagi harflarning har birining ilohiy ma'no-mohiyatini ifodalash orqali Allah qudratini, ilohiy-ma'rifiy g'oyalari muqaddasligini talqin etgan.

Vatan qadri, vatanparvarlik axloqi Maxtumquli uchun

shunchalik mo'tabarligidan ham insoniy sifatlarni, avvalo, insonning vatanparvarligi jihatidan baholagan va shunday munosabatda bo'lgan. Mutafakkir shoir talqinida chin vatanparvar inson siyosida mardlik, saxovat, aslik hamda bilimdonlik, qanoat, mehnatsevarlik, diyonat va iymon fazilatlari ham jamuljam bo'ladi.

Akademik Vohid Zohidov Maxtumquli haqidagi "Turkman she'riyatining sardori" maqolasida yozadiki:

"Xalq va Vatan farzandi bo'lgan buyuk shoir shu xalq va Vatan bilan birga bo'ldi, faryod soldi, yoqa choq qildi, qalamini qayradi, yongan qalbi va olovli she'ri bilan, butun qahri va qat'iyati bilan istilochilarga qarshi tashlandi".

Maxtumqulining vatanparvarlik g'oyasi ona Vatanni bosqinchilardan himoya qilish harakati bilan uzviy bog'liq. Shoir yashagan asrda uning xalqi Eron bosqinchilari, Xiva xonligining hujumlari dastidan muttasil ezligan, hayoti va qadri oyogosti bo'lgandi. Vatanining va xalqining chin farzandi Maxtumquli shunday chog'da ham Vatanni sevish, unga sadoqatli bo'lish, uni abgor holida tashlab ketmaslik da'vatini pandnomalari markaziga qo'ygan edi.

**Kel, ko'nglim, men senga  
nasihat qilay,  
Vatanni tark etib ketuvchi  
bo'Ima.**

Yoki:

**Mastonay urguncha g'ayri  
yurtinda,  
O'ynab-o'sgan o'z yurtingdan  
ayirma.**

Ushbu durdona hikmatlar Maxtumquli vatanparvarligining yetakchi g'oyavni tamoyilini belgilaydi. U har ne bo'lgandayam kishining o'z tug'ilgan maskanida, o'z yurtida yashashini, yashagandayam shod-xurram bo'lib yurishini istar va shunga undar edi.

Shu bilan birga, bosqinchilar hujumi tinmagan Vatanda osoyishta yurishning iloji ham yo'q edi. Bu esa Maxtumquli ijodida vatanparvarlikning qahramonlik axloqi bilan uyg'unlashib ketishini taqozo qilgan. Yurtni balo-qazolardan, eng avval uning jasur va kuchli kishilari himoya qila oladi. Shoirning:

**Yurt dardiga ketar elda  
mardonlar,  
Nomard qochib borar,  
boqing, yoronlar.**

Hamda:  
**Mard yigitga ber g'ayrat,  
G'ayri emasdир so'zim.**  
Mazkr hikmatli satrлarida shunday kuchli va orli yigitlarning orzu qilishi aks etgan. Shu bois Maxtumquli elda mard, g'ayratli, jasoratli yigitlarning naqadar ko'payishini o'ylab, Chovdurxon, Davlatali, Otaniyozxon kabi o'z yurtining jasur va nomusli qahramon hukmdorlarining badiiy timsolini she'riy satrлarida ulug'ladi. Eronning qizilbosh askarлari bilan omonsiz janglarda shahid bo'lgan Etrek yurtining hukmdori, yaqin safdosh va sirdosh do'sti Chovdurxon haqidagi bir qator she'rlari Maxtumquli qahramonlik poetikasining axloqi hamda tarbiyasining teran namunalari hisoblanadi.


**Chovdurxon, ko'z nurim,  
ko'ngil tayanchim,  
Sen vafot etibsan  
zorlar ichinda!  
Go'klangda polvonim,  
elga keragim,  
Xalqni qo'yib ketding  
norlar ichinda!**

El-yurtining erki yo'lida, Vatan himoyasi uchun halok bo'lgan mardlar orasida qahramon sarkarda Davlatalingning o'rni alohida ajralib turardi.

**So'zlar pand bo'lib qoldi  
tillarda,  
Faqirlar panohi yomon  
kunlarda,  
Yiroq o'lkalarda, yaqin  
ellarda  
Do'sti-dushmani rozi  
Davlataling.**

Maxtumqulining qahramonlik axloqi va tarbiyasini shakllantirish yo'lida o'tmishdag'i bo'lsin, zamonaviy bo'lsin, kuchli va jasoratli qahramonlar timsolidan foydalanish haqidagi ma'rifiy qarashlari ta'lim-tarbiya tizimidagi muhim yo'riqlardan hisoblanadi. Markaziy Osiyoliklar, ahli turkiy qavmlar uchun bu yo'nalishda Shiroq, To'maris, Go'ro'g'li, Alpomish, Manas kabi mifologik qahramonlar, O'g'uzxon, Alp Arslon, Sultan Sanjar, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Bobur singari jasoratli erkparvar hukmdorlar hayoti ancha ibrat namunasi bo'lib, ta'lim-tarbiya tizimida muhim tayanchlardandir.

Maxtumquli jasur qahramonlar timsoliga tayanish barobarida, qo'rkoqlar, yuraksizlar qiyofasiga tanqidiy munosabat ruhida ham qalam tebratdi. Chunki manfaatparastlik, sotqinlik, qo'rkoqlik oqibatida jasorat va



qahramonlik axloqiga putur yetishi tabiiy. Maxtumquli:

**Anchalar nomiga Go'ro'g'li  
taqdi,**

**Or-nomusi bo'lgan polvon  
qolmadi, - degan kinoyaviy  
satrлarni ichki ezelish bilan bejiz  
yaratmagan edi.**

Maxtumquli o'zining otashnafas she'riyati bilan qo'rkoqlikka, mutelikka qarshi isyon ko'targan jasorat sohibidir.

**Qo'rqa-qo'rqa qiyin ahvolga  
tushdik,**

**Taqdirda ne bo'lsa ko'rilsin  
endi,**

**Fikr qozonida qaynadik,  
pishdik,**

**Tegma, qon jo'sh urib  
to'kilsin endi.**

Bu Maxtumquli ijodining o'z xalqini Vatanni sevish, qahramonlik ko'rsatish sari dadil otlantiradigan o'tli da'vatining poetik in'kosi edi. Mana bu satrлar or-nomusli yigitlarni qahramonlik sari otlantirar, muteqo'rkoqlar yuragiga or-nomus, botirlik tuyg'usini bag'ishlar edi:

**Ko'z bilan ko'rdingiz ko'plar  
gadodir,**

**Nechalar adashdi, necha  
fidodir,**

**Ey yoronlar, quvvat berar  
Xudodir,**

**Aliy zulfiqori sug'rilsin endi**

**Nohaq to'kilmasin qizil  
qonimiz,**

**Dushmanga qolmasin butun  
nonimiz,**

**Yodga oling, omonatdir  
jonimiz,**

**Tangri amri bo'lsa berilsin  
endi.**

Qonida vatanparvarlik tuyg'usi ko'pirgan shoir asli mard va jasur xalqining hamisha, har qanday qiyin sharoitda ham shunday fazilatlar egasi bo'lib qolishini istar edi:

**Firog'iy, yuz tutar turkman  
eliga,**

**Dushman qo'l urmasin qizil  
guliga.**

Bilamizki, Maxtumquli o'z elining, balki Turkistonning ancha dolg'ali, ichki va tashqi kurashlar kuchaygan XVIII asrdagi davrida yashadi va mashaqqatlar ichra ijod etdi. Shu vajdan bu insonparvar shoir asarlarida tinchlik-osoyishtalikning qadriga yetishga undash, bosqinchilar, turli dushmanlar qutqusidan ogohlilik g'oyalari muhim o'ringa ega. Binobarin, Maxtumquli ijodi yuksak vatanparvarlik va qahramonlik g'oyalari bilan nurlangan she'riyatdir. Shoirning "Raygon ayladi" she'rida yozgan.

**G'aflatda u dushman oldi  
elimni,  
Tarqatdi har yonga do'st-u  
tengimni,  
Besh yil bo'yи yozgan kitob  
- she'rimni  
Qizilboshlar olib, vayron  
ayladи.**

Ushbu misralarda turkman xalqining Eron bosqinchilar zulmidan tortgan jabrlari ancha yorqin ifodalangan. Maxtumquli "g'aflat" so'zi va uning fojiali ma'nosiga alohida urg'u bergan. Darvoqe, hamma zamonlarda e'tiborsizlik, g'aflat kabi illatlar xalqni ming bir azobga, asirlik va mutelikka girifor etgan. Maxtumquli o'z asarlarida turkmanlarning dushmanlar tomonidan bemavrid aziyatga solingen og'ir ahvolini barcha azoblari - fojalari bilan ko'rsatish orqali o'z xalqini, shuningdek qarindosh turkiy qavmlarni ham bosqinchilardan ogoh etish, unga qarshi dadil kurashga otlantirish maqsadini ko'zlagan. Eng muhimi esa ulug' shoir turkmanlarga xos asli tantilik va botirlik fazilatlarini yuzaga chiqarish, kuchaytirish maqsadini ko'proq o'z oldiga qo'ygan.

**Abdugaffor XON,  
Buxoro viloyati  
Turkman milliy  
madaniyat markazi  
raisining muovini**



# VATANIM, ORIM DEB QASAMYOD QILDIM!

...O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasi, qonunlari va  
Umumharbiy nizomlarga qat'iy amal  
qilish, suvda, havoda – har qanday  
sharoitda o'z burchini vijdonan  
bajarish, har qanday mashaqqatlari  
sinov va qiyinchiliklarda el-yurtining  
yuksak ishonchini oglash...

Vatanga qasamyod jarayonlarida g'urur bilan aytilayotgan bu so'zlar, aslida yurtparvar o'g'lonlar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklashi hech kimga sir emas.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda ham harbiy xizmatga yangi chaqirilgan muddatli harbiy xizmatchilar ishtirokida o'tkazilgan Vatanga qasamyod marosimlari respublikamiz bo'ylab ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Tantanali tadbirlarda Chegara qo'shinlari rahbariyati, mas'ul ofitserlar, keng jamoatchilik vakillari hamda askarlarning ota-onalari-yu vaqinlari ishtirok etdi.

Toshkent viloyatining Zangiota tumani hamda Bekobod shahrida o'tkazilgan tantanalar davomida so'z olganlar Vatanimiz mustaqilligi, sarhadlarimiz daxlsizligi va ona xalqimizning tinchligi-  
yu osoyishtaligini so'nggi nafasigacha himoya qilishga bel bog'lagan o'g'londarga o'zlarining samimiylar tilaklarini bildirib, ularning kelgusidagi xizmat faoliyatiga omad tiladi. Shundan so'ng qalblarga o'zgacha g'urur va iftixor tuyg'ularini bag'ishlagan hayajonli lahzalarga navbat yetib, o'g'lonlar Vatan oldidagi yigitlik burchlarini bajarishga tantanali ravishda qasamyod qildi.

Egniga harbiy liboslari yarashgan bu alpqomat o'g'lonlar o'tgan qisqa vaqt ichida tajribali ofitser va serjantlarning sa'y-harakatlari yordamida harbiy sohaning sir-asrorlarini o'rGANIB, dastlabki ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'lganlarini marosim davomida namoyish etilgan ko'rgazmali qo'l jangi va jangovar chiqishlari orqali amalda namoyen etdi.

Yosh-u qarini bir yerga jamlagan  
shu kabi tadbirlar Farg'ona viloyatidagi  
Quvasoy va Qo'qon shaharlari  
hamda Farg'ona tumanidagi Chegara  
qo'shinlariga qarashli harbiy qismlarda  
tantanali tus olib, so'z olganlar tomonidan  
tinchlik eng oliy ne'mat ekani, bugun  
milliy armiyamizni modernizatsiya qilish,  
uning salohiyati va jangovar qudratini  
yanada oshirish bo'yicha keng qamrovli  
ishlar amalga oshirilayotganiga ta'kidlandi

Shuningdek, tadbirlar davomida Vatan oldidagi o‘z yigitlik burchini o‘tab bo‘lish



arafasida turgan muddatli harbiy xizmat oddiy askarlariga Chegara qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun beriladigan imtiyozli tavsiyanomalarining tantanali tarzda topshirilishi, askarlarning qalblarida o'zgacha havas hislarini uvg'otib, o'qib-izlanishga undadi

Jizzax viloyatining qo'shni  
respublikalar bilan chegaradosh  
hududlari daxlsizligini ta'minlashga  
kirishish ostonasida turgan yurt  
o'g'lolnari ham safdoshlari singari  
ko'ksiga qurolini mahkam bosib, Vatanga  
qasamyod qildi. Tantanali marshdan  
so'ng Vatanga qasamyod qilgan muddatli  
harbiy xizmatchilarga Chegara qo'shinlari  
qo'mondonining tabrige yetkazildi

Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlaridagi harbiy qismlarda tashkil etilgan tadbirlar davomida esa o‘z dilbandini harbiy libosda shaxdam qadamlar bilan mag‘rur harakatlanayotganini kuzatgan ota-onalarning qalbleri cheksiz quyonchga dillari faxrga to‘ldi

- Bugun bizning eng baxtili kunlarimizdan biri. Chunki bu lahzalarni juda intiqlik bilan kutdik. Ko'zлari yonib turgan shunday o'g'lonlarimiz bor ekan, yurtimiz hamisha tinch va osoyishta bo'laveradi. Quvonarlisi, bu tadbirda ishtirok etayotgan barcha ota-onalarning kayfiyatlari ko'tarinki. Farzandimiz xizmatni vorug' yuz bilan

o'tab, oilamiz bag'riga eson-omon  
qaytishini tilaymiz. Unga mahalla-ko'y,  
yaqinlari va biz ishonamiz, - deydi  
oddiy askar Doniyor Yo'ldoshevning  
onasi Donoxon Jumaveya.

Vatanga qasamyod tadbirdilariga  
Qoraqlpog'iston Respublikasida  
joylashgan Chegara qo'shinlariga qarashli  
barcha harbiy qism va bo'linmalarda ham  
boshqalar bilan.

katta tayyorgarlik ko'rildi.  
- Safda qad rostlab turibman-u,  
nigohim odamlar gavjum bo'lgan tomonda  
Uydagilar kelishdimikan degan o'y o'tdi  
xayolimdan. Yo'l ancha uzoq, Farg'onadan  
ulgurib yetib kela olisharmikan? Shu payt  
odamlar orasidan besh yoshli ukamning  
qo'l silkiganli ko'rindi. Otam uzoqdan meni  
ba'shini boshqin qallabligini tilgizib chagan-

ko'rsin, deb uni yelkalariga o'tkazib olgan

ekanlar. Yonlarida onam turibdi. Yuragim allanechuk hayajonga to'lib ketdi. Qaddim ham boshqacha rostlangandek bo'ldi. Qasamyod qabul qilayotganimda, ovozim shu qadar baland jarangladiki, uzoqroqda turgan ota-onam va ukam ham eshitishdi, chamamda. Bu onlarni aslo unutib bo'lmaydi, - deydi oddiy askar Suhrobjon Abdusattorov.

Abdusattorov.  
Haqiqiy bayramga aylanib ketgan tadbirlar davomida Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambl xonandalari hamda el suygan san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-ko'shiqlar yig'ilganlarga xush kavfiyat u'lashti.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
*DXX Chegara qo'shinlari*



Jasorat – millat g'ururi va iftixori



# ULAR MATONATI QALBLARDA MANGU

Ikkinci jahon urushi: misliz qahramonliklar, olingan-u berilgan jonlar, daryolar o'zanini to'ldirib oqqan qonlar, vayronaga aylangan bog'-u roq'lar, yer bilan bitta bo'lgan obod shaharlar, porox hidiga to'lgan o'pkalar-u, bir umr eshikka tikilgan va armon bilan ochiq ketgan munis hamda mungli ko'zlar...

U yillar otalar tog'dek o'g'illarini yo'qotdi, onalar farzand dog'i bilan yashashga, go'daklar ota mehridan mosuvu ulg'ayishga mahkum bo'ldi. Kelinchaklar vafodor yorlaridan ayrıldı. Ehtimol, yana boshqacharoq ta'riflar ham bordir. Biroq hozir Ikkinci jahon urushi haqida xayolda bo'y ko'rsatganlari shu. Urush yillaridan qanchalik uzoqlashmaylik, undagi mardlik, xalqimiz ko'rsatgan jasoratning qadr-qimmati shuncha oshaveradi. Insoniyat boshiga og'ir va dahshatli kunlarni solgan, qalblarni vayron etgan yillar ta'rifini keltirsak, bugungi tinch hamda osoyishtalik xalqimizning asl va sadoqatlari hodirlarining shirin joni evaziga qo'lga kiritilganiga amin bo'lamiz.

Ana shunday fidoyi insonlar orasida surxondaryolik Rahmonberdi ota Mirzarahimov ham bor. 1945-yili erishilgan buyuk g'alabaga munosib hissa qo'shgan vatandoshimiz bugungi kunda Sho'rchi tumanida istiqomat qilib, qarilish gashtini surib kelmoqda. Ayni vaqtida 99 yoshni qarshi olgan otaxon 18 yoshida urush maydonlarida dushman bilan jang qildi. O'qchi polkida xizmat olib borgan Rahmonberdi ota jang maydonlarida dushman bilan munosib kurashdi. Belarus, Latviya va Litva kabi davlatlarni g'anim kuchlaridan himoya qilishda ishtirot etdi va Berlin ostonalariqacha yetib bordi. Bobo bilan suhabat qilish maqsadida ijodiy jamoamiz bilan birlgilikda ularning xonadoniga bordik. Rahmonberdi bobo hovlidagi bedalarni o'rib, bir chekkaga tax qilayotgan ekan. Salom-alik va hol-ahvol so'rashlardan keyin boboni suhabatga tortdik.

- U paytlari urushga bo'yga qarab olib ketishardi, - deya gap boshladi bobo. - Bo'ying eshik tepasiga yetar yetmas bo'ldimi, "Urushga!" derdi. Urushning dastlabki yillarida ikki akamni chaqirishdi. O'sha on hanuz ko'z o'ngimda. Rahmatli ota-onam ko'zida yosh bilan ularni urushga jo'natdi. Afsus, oxirgi diydorlashishimiz ekan. Akalarim qaytishmadi. Ikki farzand dog'i otamning ham, onamning ham belini



dol qildi. Oradan hech qancha vaqt o'tmadidi. Menga ham urushga chaqiruv xati keldi...

*Shu payt eshikdan bir guruhi o'quvchilar kirib kelishdi.*

- Kelinglar, bolalarim!..

Qiziqarli suhabat uzildi. Boboning o'quvchilar bilan quyuq so'rashishi diqqatimizni tortdi.

- Sen Odil mirobchining chevarasimisan? Katta yigit bo'lib qolibsan. O'tgan safar ko'rganimda bo'ylarining kichikkina edi.

Boboning shu yoshda ham bu qadar hushyorligiga tasanno deysiz. Otaxon o'quvchilarini ichkariga taklif etib, jang xotiralari haqidagi hikoyasini davom ettirdi.

...Litva ostonasidagi janglar shiddatli tus olgan kunlarning biri edi. Ertalab gumburlagan to'p ovozidan cho'chib uyg'ondim. Nogahon komandirning "Podyom!" degan buyrug'i eshitildi. Hammamiz qo'llarimizga qurollarni olib, jang boshlanishidan oldin yig'iladigan yerto'лага kirdik. Urushdag'i eng qiyin vaziyat okop ichidan boshingni ko'tarolmay, engashib yurish edi. Hatto kechasi juda sovuq tushardi. Lekin olov yoqishga ruxsat berilmas edi. Chunki g'anim yorug'likka qarab sen turgan nuqtani aniqlar va to'plar bilan zarba berishi muqarrar edi. Tashqarida bombalar tinimsiz portlar, yerto'laning chekkalaridan tuproq to'kilar, ustunga

osig'liq koteloklar esa bir-biriga urilib jaranglardi.

Komandir vaziyatni tushuntirib, aniq topshiriq berdi. Hamma jangovar postini egalladi. Ko'p o'tmay, biznikilar buyruqqa ko'ra dushmanqa qarata o'qlar yomg'irini uyushtira boshladи.

Rahmonberdi bobo jim qoldi. Goh bizga, goh o'quvchilarga qarab, nimadir demoqchi bo'ldi.

- Urushning uni o'chsin, bolalarim, har doim tinchlik bo'lsin! O'qinglar, otanalaringga munosib farzandlar bo'lib o'saveringilar.

2 nafar farzand, 8 ta nevara va 14 ta chevarasi bor otaxon bugun hurmatda, ham e'zoda. Urushdan so'ng uzoq yillar tumanda mexanizator bo'lib ishlagan, ko'ksini bir qancha jangovar va yubiley medallar bezab turgan otaxonni ko'p ham charchatgimiz kelmedi. Boboga sihat-salomatlik tilab, keyingi manzilga yo'l oldik.

## PICOHQCHI BOBO

Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabani qo'iga kiritishda, albatta front ortida matonat ko'rsatgan qanchadan qancha zahmatkash insonlarning mashaqqatli mehnati turadi. Bugun ular xalqimiz ardog'ida. Surxondaryo viloyatining

zahmatkash Sherobod tumani aholisi. Ikkinci jahon urushida ham front chizig'ida, ham front ortida yuksak mardlik va matonat namunasini ko'rsatadi. Tilov bobo Boltayevning bolaligi urushning ayni avj pallasiga to'g'ri keldi. Urush yillari bobo ko'plab qishloq doshlari qatori front ortida matonat bilan mehnat qildi.

Shu o'rinda kichik bir lirik chekinish. Hammamiz teatrga tushganmiz. Ko'z o'ngimizda o'z san'atini namoyon etayotgan aktyorlar mahoratiga tik oyoqda chapak ham chalamiz. Chunki ular chindan ham mahoratli, o'z ishining ustasi. Endi bir o'ylab ko'ring, bu mahorat tomoshabin e'tiboriga xato va kamchiliklarsiz havola etilishi uchun sahna ortida qanchadan qancha insonlar qattiq mehnat qiladi. Front ortida zahmat chekkan kishilarni aynan shularga qiyoslash mumkin. Tilov bobo o'sha qiyinchilik kunlarini yodga olib, shunday deydi:

- Hamma narsa front uchun edi. "Men bu ishni eplolmayman, bu ish menga to'g'ri kelmaydi", degan gapni birov eshitmasdi. Yosh-u qari tinim bilmay ishlab, mehnat qilardi. Kim bir burda non topsa ham front uchun edi. Odamlarning qorni och-u, ko'zi to'q edi. Hozir ba'zi bir qorni to'q, lekin ko'zi och kimsalarni ko'rsam, negadir o'sha kunlari yodimga kelaveradi.

94 yoshni qarshi olgan otaxon hozirda ham mehnatni kanda qilmasligini ko'rib hayratlandik, ochig'i. Bobo hovlisining bir chetidan kichik bir ustaxona qurib, pichoq yasash bilan shug'ullanib kelmoqda.

- Bu ham bir mehnatda, bolam, - deydi otaxon. - Yoshing o'tgani sari sog'lig'ing pand berib boshlaydi. Uyda qancha ko'p yotsang, shuncha kasal bo'laverasan. Shu yoshimda bir o'rinda yotib qolishni istamaganim uchun harakat qilishdan to'xtamayman.

## RAZVEDKACHI DOSEK MERIDOV

Vatan tinchligini asrash uchun jang maydoniga kirgan, dushmanga qarshi mardonavor kurash olib borib, jasorat ko'rsatgan fidoyi insonlar orasida denovlik Dosek ota Meridov ham bor edi. 1945-yili erishilgan g'alabaga munosib hissa qo'shgan Dosek ota Meridov 1925-yilda tug'ilgan. Otaxon urush boshlanganida endigina 16 yoshni qarshi olgan edi. U navqiron chog'larida Vatan tinchligi uchun qo'liga qurol olib, jang maydonlarida dushman kuchlariga munosib qarshilik ko'rsata oldi.

Razvedkachi sifatida xizmat olib borgan otaxon ko'plab muhim ma'lumotlarni to'pladi. Dushman joylashgan hududlarni aniqlab, uni yo'q qilish uchun o'z bo'linmasiga aniq koordinatalarni berdi. Mana shu tarzda faoliyat olib borayotgan Dosek kunlarning birida dushman kuchlarining qarshiligidagi uchraydi va qo'lidan o'q yeydi. Shunday bo'lsa-da, u yuklatilgan vazifani muvaffaqiyatli ado etib, safdoshlariga ma'lumotlar yetkazadi. Jasur va mard askarning xizmatlari munosib ko'rilib, unga serjant harbiy unvonni beriladi.

Suhbat yusuhtirish maqsadida jamoamiz bilan otaxon xonadoniga borganimizda boba qo'lidan operatsiya qilingan, o'zi esa o'rinda yotib qolgan ekan. Otaxonni bezovta qilishni istamay, farzandlaridan boboning hol-ahvolini so'rab, so'ngra xayrashdik.

Ha. Bir paytlar navqiron, metin irodali, yurt uchun qon kechib, jang qilgan boboning bir o'rinda yotib qolganini ko'rib, dilga qayg'u oraladi. Afsuski, yillar o'z so'zini aytmoqda edi. Bobo bilan urush yillari, u qoldirgan ko'lankalar xususida uzoq suhabat qurish ilinjida kelib, noumid qaytayotganimizdan dilimiz xufton bo'ldi.

Kun botarda Termiz shahriga kirib kelar ekanmiz, Dosek ota xonadonidan xabar keldi. Otaxonning joni uzildi...

**Sherzod EGAMBERDIYEV,  
"Vatanparvar"**

# KURSANTLIKKA NOMZODLAR SARALANMOQDA

Vatan uchun xizmat qilish, harbiylik kasbining yetuk mutaxassisini bo'lishni maqsad qilgan yigitlar uchun oliy harbiy ta'limga muassasalariga dastlabki saralash tadbirlari boshlandi. Xususan, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida ushbu ta'limga muassasasi, Qurolli Kuchlar va Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyalariga kursantlikka nomzodlar uchun psixologik test va umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash sinovlari o'tkazildi.

Sog'lig'i, umumjismoniy tayyorgarligi va individual psixologik xususiyatlari muvofiq, harbiy ixtisoslikning zamonaviy talablariga javob beradigan, g'oyaviy-ma'naviy barqaror, mustahkam intellektual va ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan nomzodlarni aniqlashga qaratilgan ushbu sinovlarda Toshkent viloyatining sektor yo'naliishiida Qibray, Bo'stonliq, Yuqori Chirchiq, Parkent tumanlari va Chirchiq shahridan oliy harbiy ta'limga muassasalarida o'qishga hujjat topshirgan talabgorlar ishtirol etdi.

Erta tongdan bilim yurtida Toshkent viloyati yoshlari o'rtaida o'tkazilgan saralash imtihonlari yuqori saviyada tashkil etildi. Dastlab Toshkent harbiy okrugi mas'ul ofitserlari tomonidan tushuntirish va yo'riqnomalar yetkazilgach, psixologik test sinovlari boshlandi. Nufuzli ta'limga dargohlarining kursanti bo'lishni maqsad qilganlar orasida Baxtiyor Abdunodirov ham bor.

– Yaqinda muddatli harbiy xizmatni muvaffaqiyatliligi o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomasi bilan qaytdim, – deydi qibraylik abituriyent B. Abdunosirov.

– Hujjatlarimni Qurolli Kuchlar akademiyasiga topshirganman. Psixologik test va umumjismoniy tayyorgarlik sinovlari menga qiyinchilik tug'dirmadi. Endi oldindida yakuniy tibbiy ko'rik hamda davlat test sinovlari kutib turibdi. Imtiyozlarimga ishonib qolmay, fan bloklari bo'yicha puxta tayyorgarlik ko'ryapman. O'zim o'qishni xohlagan akademiya kursanti degan baxtgaga erishib, kelajakda yetuk ofitser bo'lishni maqsad qilganman.

Shundan so'ng nomzodlar umumjismoniy tayyorgarlik sinovlarida

turnikda tortilish, 100 va 3 000 metrga yugurish mashqlarini bajaradi. Mashqlar oralig'ida ularga dam olish uchun qo'shimcha vaqt berildi.

– Ofitser kasbining mohiyatini va unga qo'yiladigan talablarni ochib berish, yoshlarda harbiy kasbni ongli ravishda tanlash ko'nikmasini shakllantirish, ularga muayyan harbiy mutaxassislikni tanlashda yordam berish harbiy-professional yo'naltirishning asosiy maqsadi hisoblanadi, – deydi Toshkent harbiy okrugi harbiy-kasbiy saralash bo'limi katta ofitser mayor Iskandar Po'latov.

– Oliy harbiy ta'limga muassasalarida o'qish istagidagi yoshlar soni yildan yilga ortib borayotgani quvonarlidir. Bu omil ular o'rtaida sog'lom raqobat muhitini



shakllantirib, eng munosib yigitlar oliy harbiy ta'limga muassasalariga o'qishga qabul qilinishiga zamin hozirlaydi. Saralab olish tadbirlarining shaffofligi va xolisligini ta'minlash maqsadida nomzodlarning individual-psixologik o'rganish va umumjismoniy tayyorgarlik ko'rganligini baholash jarayonlari videoga yozib olinmoqda. Psixologik test va umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash sinovlaridan o'tolmagan nomzodlar dastlabki saralab olishning keyingi tadbirlariga qo'yilmaydi. Dastlabki saralab olish tadbirlaridan

muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarning shaxsiy yig'majildari mudofaa ishlari boshqarmalari va harbiy qismlar (muassasalar) tomonidan oliy harbiy ta'limga muassasalar qabul komissiyasiga yuboriladi. Hozirgi kunda dastlabki saralash tadbirlari harbiy okrugimiz miqyosida Toshkent shahri va viloyatida yakunlanib, ayni jarayonlar sirdaryolik yoshlar uchun boshlanadi.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**



# MOHIR ARTILLERIYACHI



Ikkinci jahon muhorabasining ilk kunlarida frontga jalb etilgan Abdusattor Rahimov urushga qadar shirpazlik qilardi. Ha, yanglishmadingiz, shirinliklar pishiruvchi qandolatchi. U Namangan shahridagi "Sharq shirinliklari" artelida mohir shirpaz edi. Urush janggohlari shirinliklar yaratuvchi saxiy qo'l sohibini dushmanqa qiron keltiruvchi zabardast artilleriyachiga aylantirdi. Urushgacha hech kim, hatto otasi usta shirpaz Abdusattordan qahramon artilleriyachi chiqadi deb o'yamagandi...



Voronej frontidagi 114-o'qchi polkida xizmat boshlagan kichik serjant Abdusattor Rahimov harbiylik, to'g'rirog'i jangchilik sabog'ini juda tez o'zlashtirdi. U jang-ujadallarda shu qadar mohir to'pchi bo'lib shakllandiki, har qanday talato'pda boshqarayotgan zambaragini qayerga yo'naltirishni lahzalar ichida hal qilar, hushyorligi, tadbirkorligi bilan g'alabaga tengsiz ulush qo'shardi.

Uning jasoratidan ilhomlangan harbiy jurnalist katta leytenant Telkanov o'z maqolasida o'zbek yigitining bahodirligini quyidagicha ta'rifaydi: "Rahimov janggohlarda yuzlab fashistni yer tishlatdi. Dushmanning o'narcha pulemyotlarini, minomyotlarini, zambaraklari va avtomashinalarini yakson qildi. Agar hafsalan bilan hisoblab chiqilsa, Rahimovning zambaragi to'foniga duchor bo'lib, yer bilan yakson qilingan qurol-aslahalar bir necha vzzodni qurollantirishi mumkinligiga ishonsa bo'ladi..."

Darhaqiqat, namanganlik o'g'lon jang bilan bosib o'tgan shahar-u qishloqlarni, uning qo'lida ajalini topgan fashist gazandalarni, zambaragi bilan yakson qilgan texnikalar miqdorini hisoblab chiqish mushkul edi. Rahimov Moskva, Kiiev, Xarkov, Vinnitsani gitlerchilardan ozod qilishda, Ruminiya, Vengriya, Chexoslovakiya uchun bo'lgan janglarda dushman bilan mardona olishdi, fashistlarga katta talafot yetkazdi.

Dneprning g'arbiy sohilida dashman pulemyotlari daryodan o'tayotgan jangchilar ustiga tinmay qo'rg'oshin yog'dirar, o'qqa uchragan zabardast yigitlari suv tubiga cho'kardi. Ta'rifga til ojiz og'ir daqiqalarda Rahimovning to'pi tilga kirdi. Dushman pulemyotlarini birin-ketin mo'ljalga olib, unini o'chira boshladgi. Jangchilar fursatdan foydalanan sohilga yetib bordilar. Buni sezgan gitlerchilar qarshi hujumni yanada kuchaytirdi. Mohir to'pchi ham qarab turmadni, zambaragidan fashistlar ustiga tinimsiz snaryad yog'dirdi. Ushbu jang g'alaba bilan yakun topdi.

Kiiev shahri yaqinidagi Demidovka qishlog'i. Fashistlar qishloqdagagi yosh-u qarini qirib tashlab, u yerni qo'nalg'aga aylantirgan. Rahimov xizmat qilayotgan harbiy qismiga dashmanni yo'q qilish topshirildi. Qishloqqa kirishdagi botqoqlik artilleriyachilarning harakatlanishiga halal berardi. Bundan foydalangan bosqinchilar uylarning ichiga joylashib olib, minomyot bilan tinimsiz mina yog'dirar, bir qadam bosishga yo'l bermasdi.

"Qanday qilib bo'lsa ham to'pni botqoqlikdan chiqarib gazandalarning minomyotini yakson qilish kerak, - reja tuza boshladi professional artilleriyachi. - Buni faqat yarim tunda uddalasa bo'ladi. Ayni damdag'i harakat befoyda. Chunki qancha yigitlar iblislar o'qiga duchor bo'lib, umri zavol topadi. Yaxshisi, tun qorong'isini kutamiz. Hozir esa minomyot joylashgan joyni tunda yakson qilish uchun belgilab olishim kerak..."

Rejaning dastlabki bosqichi amalga oshirildi, Abdusattor jangovar do'stleri bilan o'z to'pini mashaqqat bilan botqoqlikdan olib chiqdi. Endigi navbat fashistlarning dodini berishda. Buni bosqinchilar payqamay turib uddalash zarur. Biroq tun bag'rini tilib minomyotlar tilga kirdi. Fashistlar ularning harakatini sezib qolgandi. Rahimov zudlik bilan zambaragidan minomyotchilar tomon birin-ketin snaryad yubordi. Minomyotning uni o'chdi. Rahimov jangchilar bilan asta-sekin gitlerchilar pozitsiyasiga yaqinlashdi. Qiziq, hech qanday qarshilik yo'q. Ular o'zlarini kutmagan manzaraning ustidan chiqdi, minomyot joylashgan uy ichida qirqdan ortiq fashist jonsiz holda qalashib yotardi. Bu professional artilleriyachining mo'ljalni bexato olgani natijasi edi...

Kichik serjant Abdusattor Rahimov

janglardagi tengsiz jasorati uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. Uning ko'kragini bezab turgan jangovar "Qizil Bayroq" ordeni, birinchi va ikkinchi darajali "Vatan urushi" ordenlari yonidan Lenin ordeni bilan "Oltin Yulduz" medali joy oldi. Artilleriyachi o'g'lon 1946-yili ona yurtiga qahramon bo'lib qaytdi.

"Xotira" kitobi asosida Zulfiya YUNUSOVA tayyorladi.

# U 19 YOSHDA QAHRAMON BO'LDI

Sirdaryoning Mirzacho'lida voyaga yetgan Turg'un Ahmedov o'n sakkiz yoshga to'lgach, 1943-yilning boshidan urushga jalb etildi. Harbiy o'quv tayyorgarlikdan so'ng kichik serjant unvoni bilan 3-Belarus frontiga yuborildi. U yosh edi, g'ayratli va quvnoq edi, orzulari osmon, muhabbati dilida pinhon edi. Barchaga yaxshilik istovchi beg'ubor qalbli yigit urush deb atalmish qatlonda tez ulg'aydi. Olovli janggohlar, gitlerchilarning beshafqat qotilligi, har lahzada jon taslim qilayotgan safdoshlaridan ayriq azobi uni tez ulg'aytirdi, metin irodali jangchiga aylantirdi. Ko'ksidagi fashistlarga bo'lgan nafrat o'ti uni har bir jangda jasoratga chorlab turardi.

169-gvardiyachi o'qchi polkida stanokli pulemyot boshqaradigan kichik serjant Ahmedov janglarda fashistlarning dodini berardi. Ayniqa, Neman daryosi bo'yidagi dushman bilan bo'lgan olishuvda o't-olov yigit tengsiz jasorat ko'rsatdi.

Qo'shinnarni daryodan kechib o'tishi har gal oson kechmagan. Og'ir qurollar bilan o'tish yanada mushkul. Dushman esa qashqirdek shu fursatni poyleydi, bor yovuzligini ishga soladi. Bu gal vaziyat yanada og'ir. Gitlerchilar Neman daryosining g'arbiy sohil bo'yab kuchli istehkom qal'alari o'rnatgan. Daryo to'sig'ini o'zining so'nggi mudofaa umidiga aylantirgan. Ammo sharoit qanday bo'lmasin, qo'shinnlar bosqinchilar egallagan sohil tomon o'tib, fashistlar istehkomini tor-mor etishi shart.

Kecha-yu kunduz nazoratda bo'lgan daryoning nisbatan xavfsiz joyini belgilab, Turg'un va safdoshlari qayiq hamda sollarda g'arbiy qirg'oq tomon o'tishni boshladi. Jangchilarning o'y-xayoli daryodan tezroq beshikast o'tib, dashmanni yakson etishda. Ular daryo to'lqinlarini yengib, ma'lum fursat yo'l bosib o'tganida, gitlerchilar sezib qoldi, pulemyot va minomyotlardan o'q yog'dirishga tushdi. Jangchilar bor imkonini ishga solar, ular orasida qurbanlar ko'zga tashlanardi. Qayiqlar ag'darilib, to'lqin o'rkachlarida halok bo'lgan jangchilar unsiz yo'qlikka yuz tutardi. Turg'un bor kuchi bilan oldinga intilib, sheriklarini shoshtirardi. Uning pulemyot hisobi birinchilardan bo'lib sohilga yetib bordi. Yigit darhol qurolini ishga soldi, qolgan jangchilarni dushman hamlasidan to'sib, qirg'oqqa chiqishiga yordam bera boshladi.

U pulemyotining joyini tez-tez o'zgartirar, gitlerchilarning o't ochish nuqtalarini mo'ljalga olardi. Unga qarshi dushman okoplaridan ham tinimsiz o't chaqnardi. O'ng tomonidan dashmanning ikki pulemyoti tirillab, daryodan o'tayotgan



jangchilar ustiga qo'rg'oshin yog'dira boshladi. Turg'un qurolini o'sha tomonga to'g'riladi. Ketma-ket ajal urug'larini yubordi. Bosqinchilar pulemyoti turgan joy changib ketdi. Ikki fashistning gavdasi ko'tarildi-yu, yerga quladi.

Ahmedov ziyraklik bilan gazandalar joylashgan tomonni kuzatar, kerakli nuqtani mo'ljalga olardi. U shu asnoda astasekin oldinga siljib borardi. Mana, bir-biriga ulangan platsdarmning ichkari tomoniga yo'nalgan okop, transheyva va istehkomlar. Yigit qurolini o'sha tomonga to'g'rilab fashistlarni qiyrata boshladi. Sherigi lentani to'g'rilab, o'qlarni yetkazib turdi. Daryodan kechib o'tgan dastlabki jangchilar "Ura!" deya qichqirib oldinga intildi. Uning yonidan yugurib o'tayotganlardan biri "Yasha, shovvoz, la'natilarning dodini ber", dedi minnadtor ohangda.

Gitlerchilar platsdarmga o'tgan jangchilarimizga qarshi hujumga o'tdi. Yashil libos kiygan fashistlar avtomatlarini tirillatib, okoplardan chiqib kela boshladi. "Pulemyotning bor kuchini ishga solish vaqt keldi", shoshildi Turg'un. U paydar-pay lenta bo'shata boshladi. Quloqlari ostidan, yonginasidan vizillab o'tayotgan o'qlarga parvo qilmay, fashistlarni tinimsiz yerga qulatardi. Gitlerchilar botir pulemyotching o'tiga dosh berolmay, yarador safdoshlarini ham qoldirib, transheyalari tomon qochdi, inlariga berkindi.

Jang davom etar, bosqinchilar minomyotlarining uni o'chmasdi. Ahmedov o'zidan uzoq bo'limgan chuqurlikdagi minomyot batareyasi yaqiniga pulemyotini panalab, yetaklab bordi va o'q selini yog'dirdi. Daryo tomon o'q otayotgan dushman batareyasining uni o'chdi. Turg'un dushman istehkomiga tobora yaqinlashib borar, qayerdan jangchilarimiz tomon o't chaqnasa, bir-bir yo'q qillardi. Bundan foydalangan polk jangchilari yoppasiga daryodan kechib o'tib, dushman istehkomini tor-mor etidi...

Gvardiyachi kichik serjant Turg'un Ahmedovning ushbu jangdagi tengsiz jasorat front qo'mondonligi tomonidan yuksak mukofot - Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga munosib topildi va tavsiya etildi. O'tyurak pulemyotchiga qahramonlik unvoni berildi. Biroq 19 yoshli qahramon o'g'longa g'alabani ko'rish nasib etmadi. Navbatdagi janglardan birida mardlaracha halok bo'ldi. Safdosh do'stleri olovqalb o'g'lonning jasadini Alitus shahridagi birodarlik qabristoniga dafn etishdi. Turg'un Ahmedovning o'chmas nomi va qahramonligi tarix sahifasiga mangulikka muhrlandi.

Saudiya Arabistonida qilichbozlik bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida jahon championati o'tkazildi. Unda vakillarimiz muvaffaqiyatli qatnashdi. O'zbekiston terma jamoasining asosiy tarkib qilichbozlar esa 27-28-aprel kunlari BAAda o'tadigan "Parij - 2024" litsenzion turniriga hozirlik ko'rmoqda. Tarkibdan MVSM vakillari ham o'rinni oлgani.



## Professional boks

# MURAKKAB JANG... BEKTEMIR

Professional boksdan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natjalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Bektemir Meliqo'ziyev o'zining navbatdagi jangini AQShning Nyu-York shahrida o'tkazdi va yana g'alaba qozondi. O'ziga tegishli WBA Inter-Continental kamarini muvaffaqiyatli himoya qilgan bokschimiz Toshkent aeroportida tantanali ravishda kutib olindi.

Poytaxtimizdagi "Humo Arena" sport majmuasida professional boks bo'yicha "IBA Championlar oqshomi" o'tkazilgan va unda ringga ko'tarilgan barcha bokschimiz g'alaba qozongan, xususan Hasanboy Do'smatov IBA championlik kamariga sazovor bo'lgandi. Yurtimiz boks muxlislari xursandchilagini MVSM vakili Bektemir Meliqo'ziyev AQShdan turib davom etti. Professional bokschimiz Nyu-York shahrida o'tgan katta boks oqshomida fransiyalik Pyer Xuber Dibombega qarshi jang o'tkazdi.

Mazkur jingga qadar Meliqo'ziyev professional ringda 14 ta jang o'tkazib, ularning 13 tasida g'alaba qozongan va bitta mag'lubiyat alamini totgandi. Uning raqibi Pyer Xuber esa 23 ta jangning faqatgina bittasida yengilgandi. Dunyo boks ixlosmandlarini qiziqitrgan jang shiddatli va g'oyat qiziqarli kechdi. Bokshilar jarohatdan ham forig' bo'lmadi. To'qnashuv natijasida har ikki bokschining bosh qismi yorilib ketdi va jang 8-raund boshida shifokorlar tomonidan to'xtatildi. G'olib nomi ortda qolgan yetti raund natjalariga ko'ra aniqlandi. Hakamlarning yakdil qarori bilan Bektemir Meliqo'ziyev 79-73, 79-73 va 78-74 hisobida ushbu jang g'olib deb topildi.

## YANA G'OLIB!

Mudofaa vazirligi Oliy sport natjalarini rivojlantirish markazi vakili Bektemir Meliqo'ziyev bunga qadar havaskor boks bo'yicha ham ko'plab musobaqalarda muvaffaqiyat qozongan. Xususan, 2015 va 2017-yillari u havaskor boks bo'yicha Osiyo championligiga erishgan, 2016-yili esa yozgi Olimpiya o'ynlarining kumush medaliga sazovor bo'lgan. Jahon championatlarda ham ikki marta (2015, 2017-yillar) sovrindorlar safidan joy oлgani. Endilikda yurtimiz sport muxlislarining suyuklisiga aylangan professional bokschimiz 22-aprel kuni Toshkent aeroportida Mudofaa vazirligi mutasaddilari, MVSM vakillari, charm qo'lqop ustamizning yaqin birodalar va matbuot xodimlari tomonidan tantanali ravishda, Qurolli Kuchlar harbiy orkestri ijrosidagi yuksak notali musiqalar ostida kutib olindi. Aeroporda bokschimizga o'zbekona to'n yopildi! Biz shunday bir ajoyib lahzalarda ko'zlarini quvong yoshlariga liq to'lgan bokschimizning onasi Navro'za Sulaymonovaga yaqinlashdik.

- O'g'lingizning ring janglarini kuzatish barobarida ona sifatida o'zingizni qanday his qilasiz, azoblanasizmi?

- Bolaligida, ya'ni futboldan so'ng endi boksga o'tgan chog'lari siz nazarda tutgan tuyg'ularni dildan kechirardim, lekin buni hech kimga aytolmasdim. Oilamizdagilarning aksariyati sportchi bo'lgani uchun keyinchalik bu tuyg'ularga moslashdim. Qolaversa, ona sifatida uni doim g'alabalar sari ruhlantirishim kerakligini angladim. Boz ustiga Bektemir ring janglarida doim muvaffaqiyat qozonmoqda. Bu barchamizga quvong baxsh etidi.

- Navro'z bayrami arafasida "Matonatl Ona" ko'krak nishoni bilan taqdirlanibsiz, tabriklaymiz!

- Rahmat! Bularning barchasi

o'g'lim - Bektemir tufayli!  
G'alabalari bardavom bo'lsa, Sizning savollaringizga ham o'rinn qolmaydi!

Shundan so'ng biz Bektemirning otasi Ro'zmatjon Sulaymonovga murojaat etdik.

- To'g'risi men o'g'limning boksci emas, futbolchi bo'lishi xohlagandim. Futbol maktabida tarbiyalanib yurgan kezlar, aniqrog'i 9 yoshida u boksci bo'lishi xohladi. Bizlar ham rozi bo'ldik. Demak... xato qilmagan ekan, o'zlarining shohid bo'lib turibiszlar!

Men esa maktabda o'qituvchilik qilaman, lekin hanuz futboldan chetlashganim yo'q, "Sport - sog'lik garovi" sifatida muntazam ravishda shug'ullanib turaman.

Qahramonimiz - Bektemir bilan ham suhbatimiz uzoq cho'zilmadi. U Pyer Xuber Dibombega qarshi jangi boshqalariga nisbatan ancha murakkab kechgani, o'zi uchun ham kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelgani, lekin tayyorgarlik puxta bo'lgani bois g'alaba qozonganini ta'kidladi.

Eslatib o'tamiz, bokschimiz bundan oldingi jangini 2023-yilning oktabr oyida Alantes Foksga qarshi o'tkazgan va texnik nokaut orqali g'alaba qozongandi. Bokschimizga mazkur g'alabalar bardavomligini tilab qolamiz.

12-21-aprel kunlari Saudiya Arabistonida qilichbozlik bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida jahon championati bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi bittadan oltin va kumush, 2 ta bronza, jami 4 ta medalga sazovor bo'ldi. Qayd etish joiz, bu yangi davrni boshlagan yurtimiz qilichbozlarining jahon championatlarida qayd etgan eng yaxshi natijasi bo'ldi.

Jahon championati qahramonlari:

**Oltin medal:** Sardor Abdurakimbekov (sablya, o'smirlar)

**Kumush medal:** Alpamis Urakbayev (sablya, o'smirlar)

**Bronza medal:** Fernanda Errera (sablya, yoshlar)

Nargiza Jaksibayeva (sablya, o'smirlar)

Ma'lumki, 1-aprel kuni qilichbozlik sportida "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'ynlari uchun reyting ochkolarini jamg'arish davri rasman yakunlangan, sablya bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, Mudofaa vazirligi Oliy sport natjalarini rivojlantirish markazi vakili Zaynab Dayibekova ushbu reyting orqali 4 yillikning eng nufuzli musobaqasiga yo'llanma olgandi. Qolgan yo'nalishlardagi qilichbozlarimiz qit'aviy litsenzion turnirda qatnashib, yo'llanma olishga harakat qiladi. Asosi yoshlar jamoasidan iborat sportchilarimiz 27-28-aprel kunlari BAAning Fujayra shahrida o'tadigan "Parij - 2024" litsenzion turnirida ishtirok etadi.



Eshkak eshish

# “PARIJ – 2024” UCHUN NAVBATDAGI BESHTA YO’LLANMA

Yaponiyada baydarka va kanoe, Janubiy Koreyada akademik eshkak eshish bo'yicha Osiyo litsenzion turnirlari bo'lib o'tdi. Unda asosiy tarkibi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillaridan iborat bo'lgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari muvaffaqiyatlari qatnashdi.

Baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha terma jamoamiz a'zolari 2023-yilning dekabr oyidan buyon bir necha bosqichdan iborat uzluksiz mashg'ulotlarni turli mamlakatlarda olib bordi. Xususan, joriy yilning fevral oyida Turkiyaning Belek shahrida xalqaro o'quv-mashg'ulot yig'ini o'tkazib qaytgan sportchilarimiz Toshkent dengizida va Samarqand eshkak eshish kanalida o'z mahoratlarini oshirishda davom etdi. Ushbu mashg'ulotlarga Bolgariya va Vengriya davlatidan kelgan tajribali murabbiylar ham jalg etildi. Zotan, 19–21-aprel kunlari Yaponiyada “Parij – 2024” Olimpiadasiga yo'llanmalar taqdirm etadigan Osiyo championati o'tkazilishi rejalashtirilgandi. Puxta hozirlik o'z samarasini berdi. Musobaqaning bиринчи kuniyoq hamyurtlarimiz shohsupaga ko'tarildi. Denis Onufriev va Shahrizoda Mavlonova baydarkada eshkak eshish bo'yicha 200 metrda kechgan yakalik dasturida kumush medalni qo'lga kiritdi. Sovrindorlar safidan MVSM vakili ham joy oldi.

Tanatmisheva juftligi 500 metrlik poygada 2-bo'lib marra chizig'ini kesib o'tdi. MVSM vakili Elyorjon Mamadaliev kanoeda eshkak eshish bo'yicha 200 metrlik, Artur Guliyev / Vladlen Denisov juftligi 500 metrlik dasturlarda bronza medalga sazovor bo'ldi. Ertasi kungi bahslarni MVSM vakili Yekaterina Shubina ajoyib xushxabar bilan boshlab berdi. Armiyamiz sportchisi baydarkada eshkak eshish bo'yicha “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasiga ega chiqdi. U Osiyo championatining 500 metr masofaga kechgan yakkalik dasturida kumush medalni qo'lga kiritish barobarida Olimpiada yo'llanmasini ham naqd qildi. Shu kungi bahslarda qatnashgan vakillarimizdan baydarkachilarimiz Shahrizoda Mavlonova hamda Ozodjon Amriddinov juftligi 500 metrda kechgan poygada marra chizig'ini birinchi bo'lib kesib o'tib, oltin medalga sazovor bo'lishdi. Shuningdek, ayni shu yo'nالishdag'i kanoechilar bahsida MVSM vakili

Xonzoda Erkinova hamda Vladlen Denisov tandem kumush medal sohibiga aylandi.

Baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Yaponiya mezbonlik qilgan Osiyo litsenzion turnirining so'nggi kuni ham O'zbekiston terma jamoasi uchun muvaffaqiyatlari o'tdi. Baydarkada 1 000 metr masofaga kechgan poygada MVSM vakili Shaxriyor Mahkamov oltin medalni qo'lga kiritdi. Eng asosiysi, ushbu natija bilan u “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasiga ham ega bo'ldi.

Shaxriyordan so'ng armiyamiz yana bir sportchisi – Nilufar Zokirova katta sahnaga chiqdi. Nilufar 200 metr masofaga kechgan poygada oltin medalni qo'lga kiritish barobarida “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasiga aylandi. Eslatib o'tamiz, bu



Zokirovaning faoliyatidagi ikkinchi Olimpiada bo'ladi.

Akademik eshkak eshuvchilarimiz Shahzod Nurmatov va Sobir Safaraliyev ham Janubiy Koreya mezbonlik qilgan litsenzion turnirda muvaffaqiyatlari ishtirot etib, “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasiga ega bo'ldi. Yo'llanma sohiblarini yana bir bor eslatib o'tamiz.

**Baydarka va kanoe:**

K1 500 metr:  
Yekaterina Shubina (MVSM)

S1 200 metr: Nilufar Zokirova (MVSM)

K1 1 000 metr:  
Shaxriyor Mahkamov (MVSM)

**Akademik eshkak eshish:**

W1x: Anna Prakaten  
LM2x: Shahzod Nurmatov, Sobir Safaraliyev.

Dzyudo

## TO'RABOYEV – OSIYO CHAMPIONI!



20–22-aprel kunlari Gonkongda dzyudo bo'yicha Osiyo championati o'tkazildi. Unda ishtirot etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari yakkalik bahslarining bittadan oltin va kumush, 4 ta bronza, jami 6 ta medalini qo'lga kiritdi. Sovrindorlar safidan MVSM vakili ham joy oldi.

Qit'amizning 36 mamlakatidan 270 nafardan ziyod sportchisi qatnashgan mazkur qit'a birinchiligidagi O'zbekiston terma jamoasining 17 nafar (9 nafar erkak va 8 nafar ayol) atleti ishtirot etdi. Osiyo championati qatnashchilari jahon va “Parij – 2024” reytingi uchun bahs olib bordi.

Xitoya kechgan XIX Osiyo o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'lib, “qit'a o'yinlarida ilk bor g'oliblikka erishgan o'zbekistonlik ayol” sifatida yurtimiz sporti tarixidan joy olgan MVSM vakili Diyora Keldiyorovning mazkur qit'a birinchiligidagi biroz omadi chopmadi. Faqat g'oliblikni

maqsad qilib Gonkongga borgan sportchimiz yarim finalda raqibiga imkoniyatni boy berib qo'ydi. Lekin... -52 kg vazn toifasida bellashgan dzyudochimiz bronza medal uchun kechgan bahsda Janubiy Koreya vakili Yerin Jungni “ippon” bahosi bilan mag'lub etishga muvaffaq bo'ldi.

Hamyurtimiz Shohista Nazarova (-70 kg) esa faoliyatida ikkinchi bor Osiyo championati shohsupasiga ko'tarildi. U bronza medal uchun bahsda

janubiy koreyalik Xeonji Yuni mag'lubiyatga uchratdi. Shohista 2022-yili o'tkazilgan qit'a birinchiligidagi ham shohsupaning 3-pog'onasidan joy olgandi.

Erkaklar o'tasidagi -60 kg vazn toifasi bo'yicha bahslarda terma jamoamizning ikki vakili – Doston Ro'ziyev va Dilshod Baratov tata mida o'zar o'tqash keldi. Ro'ziyev qo'shimcha daqiqalarda “ippon” usuli bilan yengib, Osiyo championatining bronza medaliga ega chiqdi. Mazkur qit'a birinchiligidagi muxlislar yana bir “o'zbek derbisi” ga guvoh bo'ldi. Sardor

Nurillayev va Muhriddin Tilovov o'tasidagi -66 kg vazn toifasida bronza medal uchun kechgan kurashda Sardor g'alaba qozondi.

-73 kg vazn toifasida bahslarda ishtirot etgan hamyurtimiz Murodjon Yo'ldoshev kumush medalga sazovor bo'ldi. U finalda dzyudo vatani vakili yaponiyalik Tatsuki

Ishihara imkoniyatni boy berib qo'ydi. Yakkalik bahslarida terma jamoamiz a'zolaridan Muzaffarbek To'raboloyev eng yuqori natijaga erishdi. To'raboloyev og'ir (-100 kg) vaznda championlik uchun bellashuvda BAA sharafini himoya qilgan Jafar Kotsoyevni “ippon” bahosi bilan mag'lub etib, O'zbekiston terma jamoasi hisobiga oltin medalni keltirdi.

Musobaqa g'olib va sovrindorlarini eslatib o'tamiz.

**Oltin medal:**

-100 kg: Muzaffarbek To'raboloyev

**Kumush medal:**

-73 kg: Murodjon Yo'ldoshev

**Bronza medal:**

-60 kg: Doston Ro'ziyev

-66 kg: Sardor Nurillayev

-52 kg: Diyora Keldiyorova

-70 kg: Shohista Nazarova.



Harbiy mutaxassislar tomonidan merganlarga shunday ta'rif beriladi: zamonaviy jangovar harakatlarda snayper butun boshli bo'linmani ruhiy tushkunlikka tushirishga, qo'shinboshilarni, jang taqdiri bog'liq bo'lgan muhim shaxslarni jismonan mahv qilishga va keyingi harbiy harakatlar yoki operatsiya borishini bir o'q bilan hal qilishga qodir bo'lgan mustaqil jangovar birlidir. Ehtiyyotkorlik, sabr-toqat, aniqlik, qat'iy intizom, xotirjamlik, sovuqqon fikrlash merganning asosiy xususiyat va sifatlaridir.

Ko'p yillik tajribaga ega va mahorati e'tirof etilgan mohir merganlardan biri esa snayper hissiyotlarga berilishi aslo mumkin emas, deydi. Chunki hayajon va qo'rquv o'q otuvchini, mergan bo'lismi istagan o'rganuvchini kuchsizlantiradi va uni asabiylashtirib, jismoniy quvvatdan mahrum qildi. Hayajon hovliqishni keltirib chiqaradi. Bu salbiy his-tuyg'ular mushaklarning kuchlanishi ham bo'yusunmasligini, nafas olish siqilib, betartib harakatlarni yuzaga keltiradi. Natijada vazifa bajarilmaydi.

Mergan jangovar topshiriqni bajarishda mutlaqo hamma

narsaning mayda detallarigacha - o'q-dorilar va snayper miltig'ining holatidan tortib otish paytida nafasni ushlab turish vaqtiga hafta tirsaklar kengligigacha hisobga olishi zarur. Mergan chekmasligi kerak, chunki chekish yurak urishining tezlashishiga olib keladi, bu esa aniq zarbaga xalaqtiradi.

Dunyoning barcha mamlakatlari armiyalarida zarur mutaxassisliklar bilan birga snayper - mohir merganlarni tayyorlash ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ularni tayyorlash jarayonlari va mashg'ulotlarning tartibi, mohiyati bir-biriga o'xshasa-da,

uslub va yondashuvlar turlicha bo'lib, bu farqlar mashqlarning tashkiliy jihatlarida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Hindiston Mudofaa vazirligining quruqlikdagi qo'shinlari maktabi Madhya Pradesh shtati Mhow shahrida joylashgan. Shu shahar nomi bilan ataladigan harbiy maktab 1971-yili tashkil etilgan bo'lib, unda har yili 1 200 nafardan ortiq ofitser tahlis oladi. Bundan tashqari, mazkur harbiy maktabda yiliga xorij mamlakatlarining 100 dan ortiq harbiy xizmatchisi o'qiydi.

Harbiy harakatlar samaradorligini oshirish, kuzatuv va razvedka, dushmanni masofadan zararsizlantirish, shaxsiy tarkibni qo'llab-quvvatlash, xavfsizlikni ta'minlash kabi maqsadlar uchun ushbu maktabda merganlar markazi ham ochilgan bo'lib, bir yilda 800 nafardan ortiq serjant yuqori aniqlikda otish sirlarini o'rganib, mergan mutaxassisligini egallaydi.

#### Markazda o'qishni istagan nomzodlardan asosan quyidagilar talab qilinadi:

- harbiy xizmatda bo'lish;
  - piyoda qo'shinlar tarkibida serjant harbiy unvonida bo'lish;
  - sog'lom jismoniy holatda va yaxshi ko'rish qobiliyatiga ega bo'lish;
  - psixologik va yo'naltirilgan test sinovlaridan o'tish;
  - o'tochar qurollardan mukammal foydalana olish.
- Yetarli ballni to'plab, tegishli ko'rik va sinovlardan o'tgan

nomzodlar olti bosqichda o'qish va o'rganishni boshlaydi.

Birinchi bosqich mashqlari o'tochar quroldan tik turgan, tizzalagan va yotgan holatda o'q otish ko'rinishida kechib, bu jarayonda bo'l'g'usi merganlar optik mo'ljalga olish moslamalaridan foydalanish, otish mobaynida qurolga tuzatmalar kiritish usullari, noqulay vaziyatlarda nishonlarni urish kabilarni o'rganadi. Shuningdek, otish mezonlari, o't ochish holati, qurolning tepishini nazorat qilish, qayta o'qlash kabilar bo'yicha ham qo'shimcha mashqlar bajariladi. Ikki kishidan iborat kichik guruhlar mashqlarida biri o'q otsa, ikkinchisi nishonlar yo'q qilinishini nazorat qilib boradi.

Ular nazariy tayyorgarlik mashg'ulotlari ballistika asoslari, shu jumladan o'qning harakati va trayektoriyasi, shamolning ta'siri hamda nishongacha bo'lgan masofani aniqlash, o'qning harakatiga ta'sir qiluvchi omillarni to'g'ri hisoblashni o'rganadi. Ko'p yillik tajribaga ega yo'rirqchilar va mashg'ulot rahbarlari boshchiligidagi o'rganuvchilar merganlik taktika va strategiyasi, vaziyatni tahlil qilish, mavjud to'siqlami yengib o'tish kabilarning nazariy bilimlarini egallaydi. Vazifalarni bajarish bilan bog'liq psixologik va psixofiziologik jihatlarini o'rganish stressni nazorat qilish, diqqatni jamlash, qaror qabul qilish, qiyinchiliklarga psixologik moslashish tarzida kechadi.

Taktika va niqoblanish tayyorgarlikning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanib, ularni chucher va mukammal o'rganish jangning samarali kechishini, vazifaning aniq va tez bajarilishini ta'minlaydi. Niqoblanish va yashirin jang olib borish usullari eng qulay pozitsiyalarni tanlash, ko'zga ko'rinnmay turib kuzatish, vaziyatni baholash, kichik guruh yoki yakka tartibda operatsiyalarni amalga oshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Nishonlarni yo'q qilish, turli sharoitlarda mashqlarni bajarish, jismoniy tayyorgarlik bosqichlarining



mashqlari tog' va cho'l sharoitlari, quruqlik va suv havzalarida tashkil etiladi. Havoda, ya'ni uchish apparatlarida turib o'q uzish, harakatlanadigan nishonlarga otish, uzoq masofadagi va noaniq nishonlarni bexato urishni mukammal egallash o'rganuvchilardan ko'p vaqt va sabr-toqatni talab etadi. Bu jarayonda o'rganuvchi o'q otish, niqoblash va kuzatish san'atini mukammal bilishi talab etilib, birinchi zARBADA nishonni urishi kerak. Ular mashg'ulotlarda har qanday sharoitda qulay ishlashga yordam beradigan maxsus jihozlardan foydalanish bo'yicha ham saboq oladi. Bu jihozlarga maxsus kiyimlar, turlicha parametrlarga ega optik tizimlar, tog' va cho'l hududlarida, suv havzalarida harakatlanish uchun zarur bo'ladigan uskunalar va boshqa vositalar kiradi.

Jismoniy tayyorgarlik mashqlari chidamlilik, moslashuvchanlik, muvozanat va muvofiqlashtirish, tezlik va reaksiya, aqliy diqqat va stressga chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tayyorgarlik jarayonlari o'rganuvchilarning yashirin qibiliyatlarini yuzaga chiqaradi, o'ziga ishonchni, keskin vaziyatlarda aniq, to'g'ri va tez qaror qabul qila olish ko'nikmasini oshiradi.

**Furqat ERGASHEV tayyorladi.**



O'zbekiston championati

Harbiy sport o'yinlari

# ENG MOHIR KARTING SPORTCHILARI ANIQOLANDI



Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan yoshlar o'rtasida sportning karting turi bo'yicha O'zbekiston championati o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 70 nafar sportchi turli masofalarda "Mini", "Mikro", "KF-OK junior", "Super mini", "KF-OK" va "KZ" sinflari bo'yicha karting sport mashinalarida bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

#### "Mini" sinfida:

1-o'rin: Iskandar Abdumajidov (Toshkent shahri);  
2-o'rin: Aleksandra Krilova (Toshkent shahri);  
3-o'rin: Yaroslav Xramchixen (Toshkent shahri).

#### "Mikro" sinfida:

1-o'rin: Asilbek G'ulomjonov (Sirdaryo viloyati);  
2-o'rin: Azizmurod Muhammadjonov (Namangan viloyati);

3-o'rin: Muhammadamin Turg'unaliyev (Namangan viloyati).

#### "KF-OK junior" sinfida:

1-o'rin: Amir Hamrayev (Toshkent shahri);  
2-o'rin: Artyom Usheka (Toshkent viloyati);  
3-o'rin: Muhammabdullo Alijonov (Namangan viloyati).

#### "Super mini" sinfida:

1-o'rin: Arseniy Glova (Toshkent shahri);  
2-o'rin: Danil Shevsov (Toshkent shahri);  
3-o'rin: Matvey Mochalkin (Sirdaryo viloyati).

#### "KF-OK" sinfida:

1-o'rin: Kristina Shipkova (Toshkent shahri);  
2-o'rin: Kamoliddin Najmiddinov (Toshkent shahri);  
3-o'rin: Yusuf Mahmudov (Namangan viloyati).

#### "KZ" sinfida:

1-o'rin: Sergey Bogdasarov (Sirdaryo viloyati);  
2-o'rin: Ayder Haydarov (Toshkent viloyati);  
3-o'rin: Farrux Muratov (Toshkent shahri).

#### Umumjamoa hisobida:

1-o'rin: Namangan viloyati;  
2-o'rin: Toshkent viloyati;  
3-o'rin: Sirdaryo viloyati jamoalar. Birinchi va yuqori o'rinnarni egallagan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining medal, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

E'tiborlisi, poytaxtlik sportchi Kristina Shipkova alohida namuna ko'satib, tegishli oliy ta'lim muassasalariga test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonlarsiz qabul qilinish huquqini qo'lg'a kiritdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Harbiy-vatanparvarlik

Profilaktika

So'ragan edingiz

## "Yosh gvardiyachilar" sinfi ochildi

Namangan harbiy prokuraturasi tomonidan Pop tumanining chegaraoldi va olis hududlaridagi mahallalarda kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda vatanparvarlik sayli o'tkazildi.

Poytaxtimizning Uchtepa tumanida joylashgan 109-umumta'l'm maktabida "Yosh gvardiyachilar" sinfi tashkil etildi.

Milliy gvardiya Toshkent shahri bo'yicha boshqarmasi va Toshkent harbiy prokuraturasi hamkorligida o'tkazilgan ochilish marosimida pedagog xodimlar, keng jamaatchilik vakillari va ota-onalar ishtirot etdi.

Tadbir ko'tarinki ruhda o'tdi. Xususan, davlat madhiyasi bilan boshlangan tantana o'quvchilarning badiiy chiqishlari, "Yosh gvardiyachilar"ning qasamyodi va vatanparvarlikni madh etuvchi turli sahna ko'rinishlari bilan davom etdi.

"Yosh gvardiyachilar" sinfi kelajak avlodni Vatanga muhabbatli va sadoqatl, ma'nan va jismonan sog'lom, fidoyi bo'lib kamolga yetishlariga xizmat qiladi.

Adliya mayori Jasur ORTIQOV, Toshkent harbiy prokuraturasi katta tergovchisi

## HAMKORLIKDAGI vazifalar belgilandi

Milliy gvardiya qo'mondonligida huquqbazarlik va jinoyatchilik profilaktikasiga bag'ishlangan muloqot bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining birinchi o'rinnbosari O. Xolboyev ishtirot etdi.

Onlayn va oflays o'tgan tadbirda qo'mondonlik tarkibiy tarmoqlari hamda tizimdag'i harbiy qism va muassasalar mas'ullari qatnashdi.

Jarayonda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish hamda faoliyatga doir boshqa masalalar, shuningdek bu boradagi amaliy ishlar natijalari atroficha muhokama qilindi.

Adliya podpolkovnigi Nodir BOYXONOV, Respublika Harbiy prokuraturasi bo'lim katta harbiy prokurori

## HUQUQIY maslahat



Hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefonagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

Shaxsga doir ma'lumotlarning hamma foydalanishi mumkin bo'lgan manbalariga subyektning yozma roziligi bilan uning familyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi, manzili, abonent raqami, kasbi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda subyekt tomonidan ma'lum qilinadigan boshqa shaxsga doir ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati

Vatanparvarjon siz haqingizda qvunoq fakt biladi. Qanday ma'lumotligiga qiziqyapsizmi? Mayli, eshita qoling. Shu kungacha do'stlingiz, tengdoshlaringiz, aka-uka, opa-singillaringiz bilan suv sepib, qiy-chuvlashib o'ynagansiz. Ust-boshingizni jiqla ho'l qilib, yaxshigina suvgaga bo'kkansiz. Hozir ham mutolaa davomida o'sha zavqli kunlarni eslab, shodlanyapsiz. O'yab ko'ring-chi, yaqinlarining bilan bu tadbirni dunyodagi eng muhtasham favvoralar yonida o'tkazishni xohlarmiditingiz? Axir 1-may – Xalqaro favvoralar kuni yaqin bo'lsa... Menimcha, buni dildan istaysiz. Unda jomadoningizga kiyim-kechaklarni joylang. Siz bilan jahonning eng mashhur sakkizta favvorasi tomon parvoz qilamiz!

#### Bellagio favvoralari (Las-Vegas, AQSh)

Audiokarnaylar, 1 214 ta nozul (gaz yoki suyuqlik oqimini boshqarish uchun mo'ljallangan quvur, shlang yoki trubaning uchidagi silindrsimon yoki dumaloq nay) va 4 792 ta chirodan barpo bo'lgan bu favvorani ko'rib, hang-u mang bo'lib qolishingiz aniq. Botiningizdagagi zerikish kutib turсин. Chunki har 30 daqiqada musiqali fontan boshlanadi. Raqsga tushganda ham 460 fut balandlikda xirom aylab, sekin pastga shivirlab qo'nadi.

#### Boylit favvorasi (Suntek City, Singapur)

Voybo'o', shuncha odam-a! Qariyb minglab sayyoq va mahalliy aholining ko'pchiligi shu yerda. Tiqilinchligini aytmasizmi? Qarshingizda esa maydoni 1 700 kvadrat metr, balandligi 13,8 metr bo'lgan Boylik favvorasi. Voooy, namuncha bahaybat! 1998-yilda Guinnessning rekordlar

# Favoramisan favora-ya!



kitobiga kirgan Yerdagi eng katta favvara, deb shuni aytalar kerak-da! Qizig'i, haligacha unga hajm borasida bellashadigan topilgani yo'q.

#### Montjuikning sehrli favvorasi (Barcelona, Ispaniya)

Bu favvara chindan ham sehrlimi? Albatta-da! Axir har tomchisida yorug'lik aks etgan musiqali suv shousi ertaklar olamiga g'arq qilishi bor gap. Atrofdagi 4 760 ta chiroq va 3 620 ta uchar to'lg'ın rang-barang tovlinib, "Andalusiya Moorish" deb nomlangan san'at asarimga baho ber, degandek jilvalanadi.

#### Versal favvoralari (Versal, Fransiya)

XVII asrda qurilgan bu favvara 50 ta haykal va 620 ta uchar suv to'lg'ınlar bilan birlashtirilgan namoyish ko'rsatadi. Versal saroyidagi bog'ning qoq o'rjasida joyleshgan mo'jizani Andre Le Notre ustomonlik bilan yaratibdi. Otasiga rahmat! Qoyil qolmaslikning iloji yo'q.

#### Dubay favvorasi (Dubay, Birlashgan Arab Amirliklari)

Bugunga kelib Dubay shahrini ushbu fontansiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning qurilishida Las Vegasdagi Bellagio favvoralarini yaratgan ustalarning qo'li bor.

Muhtashamligining sababi ham shundan. Tomchilar Maykl Jeksonning "Thriller" qo'shig'idan tortib zamonamizning eng mashhur pop xitlarigacha raqsga tushadi.

#### Oy yog'dusidagi kamalak (Seul, Janubiy Koreya)

Odatda, yomg'irdan so'ng kamalak chiqadi. Biroq Seuldagi Banpo ko'prigida oy yog'dusida ham ko'rinish beradigan bor ekan. Ayniqa, tunda turfa rangli chiroqlar ko'prikdir 10 mingga yaqin nozuldan 43 metrgacha otilayotgan suvni yoritib, ertaknamo tomosha ko'rsatadi. Aynan shu karomati uchun Guinnessning rekordlar kitobidan joy olgan.

#### Jidda favvorasi (Jidda, Saudiya Arabiston)

Uni yana Qirol Fahd deb atashingiz mumkin. Haqiqatdan, u dunyodagi eng baland favvara sifatida Guinnessning rekordlar kitobiga kirgan podshoh. Qanchalik baland, deysizmi? 260 metr. Ehtiyyot bo'ling! Otilganda quvonganingizdan og'zingizni lang olib hayqirmang. Yo'qsa, shamol favvoradagi Qizil dengizdan olingen sho'r suvni tilingizga qo'ndirishi hech gap emas.

Azim AXTAMOV

#### Ta'lif

# FAOLIYAT VA O'QUV jarayonlari bilan tanishuv

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq, harbiy ta'lif darajasini yanada yuksaltirish, ta'lif sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish Mudofaa vazirligining oldiga qo'yilgan asosiy vazifalaridan biridir.

Bu borada olib borilayotgan ishlar, yangi innovatsion loyihalar, ishlannalar hamda kursantlarning zamonaviy ta'lif olishlarini jadallashtirish, harbiy xizmatchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash borasida ilg'or tajribalar asosida tashkil etilayotganini ko'zdan kechirish va yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish maqsadida, mudofaa vazirining o'rinnbosari general-major Hamdam Qarshiyev Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutiga tashrif buyurdi.



Tashrif davomida vazir o'rinnbosari harbiy institut faoliyati, kursantlarning ta'lif olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy o'quv sinflari, ilmiy tadqiqotlar laboratoriyalari, shuningdek amalga oshirilayotgan yangi innovatsion loyihalarni ko'zdan kechirib, ofitserlar, professor-o'qituvchilar va kursantlar bilan raqamli texnologiyani rivojlantirish bo'yicha taklif va mulohazalari xususida suhbatlashdi.

Suhbat jarayonida kursantlarga bugungi kunda xalqaro maydonda yuz berayotgan harbiy-siyosiy vaziyatni to'g'ri tahlil qilish, har qanday vaziyatda nostandard qaror qabul qilish kerakligi ta'kidlandi. Shuningdek, bugun olyi ta'lif muassasalarida bo'lajak ofitserlarning o'z sohasining yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgani e'riof etildi. Bunday imkoniyatdan to'g'ri va oqilona foydalanish lozimligi uqtirildi.

**Mayor Sherqo'zi XAKIMOV**  
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari  
va aloqa harbiy instituti

Ayollar bekati

# UYDA

*qanday gullar  
o'stirish mumkin?*

Xona gullarining insonga baxt keltirishini eshitganmisiz? Bunga ishonmasligingiz mumkin, ammo biz uymizda mehr bilan parvarishlab o'stiradigan gullarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Biri baxt keltirsa, boshqasi xonadoningizga quvонch bag'ishlaydi. Xona gullari inson sog'lig'i uchun nihoyatda foydalidir. Ular xonadonimizga nafaqat go'zallik bag'ishlaydi, balki stressni yengishga, sog'lig'imizni yaxshilashga ham yordam beradi. Insonga kuch beradi, xotirani yaxshilaydi, charchoqni oladi. Shu bilan birga ba'zi gullarni o'stirish inson sog'lig'i uchun zararli bo'lishi mumkin.

Sahifamizda xona gullarini o'stirish, parvarish qilish va ularning keng tarqalgan ayrim turlari xususida to'xtolib o'tamiz.

**Xlorofitum, sanseviyeriya, lavr, jasmin, geran, gardeniya, pechak, begoniya, aloe, zamiokulkas, kalanxoe** kabi gullarni yotoqxonaga ham qo'yish mumkin. Ular karbonat angidridni yutib, o'zidan kislород chiqaradi, shu bilan birga xonadagi namlikni oshiradi.

**Hedera, molochay, dekorativ qalampir, monstera, diffenbaxiya, azaliya, siklamin** kabi gullarni uya o'stirmagan ma'qul, chunki bu gullar sog'liq uchun xavfi hisoblanadi.



**Oksalis (kapalakgul)** salomatlik uchun eng foydali gul bo'lib, turli kasalliklardan xalos bo'lishga yordam beradi. Shu bilan birga bu gul baxt va omad timsoli hisoblanadi.

**Xlorofitum** havoga chiqariladigan gazlarni yaxshi o'zlashtiradi. Havoni zararli bakteriyalardan tozalaydi, namlantiradi. Havodagi ammiak, formaldegid va atsetonnii yutadi. Bu gulni yosh bolali xonadonlarda, bog'cha va kasalxonalarда ko'paytirish tavsiya etiladi.

**Spatifillum** xalq orasida "Ayol baxti" nomi bilan mashhur. Bu gul uyingizni bezabgina qolmay, balki haqiqiy changyutkich ham bo'lib, havoni changdan, zaharli bug'lardan mukammal tozalaydi.

**Sanseviyeriya** gulini oila himoyachisi, deb aytish mumkin. Bu gulni asosan oshxonada o'stirish maqsadga muvofig. Chunki u is gazini yutib, o'zidan kislород chiqaradi. Turli xil gadjet va Wi-Fi'dan chiqadigan zararli nurlarni bartaraft etadi.

**Shefflerani** chekuvchilar yashaydigan yoki ishlaydigan xonalarda o'stirish maqsadga muvofig. Bu o'simlik tamaki tutuni tarkibidagi nikotin va smolani tez yutib, havoni tozalaydi.

**Pechak** guli havoni allergenlardan, zamburug', zaharli gazlardan tozalash bo'yicha rekordchi hisoblanadi. Agar uyingizni yangitdan ta'mirlagan bo'lsangiz, bu gul xonadagi formaldegid, benzol va ammiak kabi zaharli moddalarni o'ziga singdiradi.


**Aloe** nihoyatda foydali gul bo'lib, biror joyingiz shikastlanganda yoki kuyganda barglarining sharbati sizga asqatadi.

**Benjamin** havoni eng yaxshi tozalovchi o'simliklardan biri hisoblanadi. Pechak singari zaharli moddalarni o'ziga singdirib, changni ohanrabodek o'ziga tortib oladi.

**Dratsena** o'simligi oz miqdorda bo'lsa-da, lak, yelim va mebdelan chiqadigan formaldegidni zararsizlantiradi.

**Xamedoreya (xonaki palma)** havoni namlantiradi, plastmassadan chiqadigan zararli moddalarni filtrlaydi.

**Fikus** bu o'simlik bor xona havosi nafaqat toza, balki sog'liq uchun foydali hisoblanadi. Chunki bu gul havodagi zararli moddalarni aminokislotalarga aylantiradi.



## TEFTEL JARKOP



**Kerakli masalliqlar:** 300 g qiyima, 5-6 dona kartoshka, bitta qizil sabzi, bir dona pomidor, 2 dona piyoz, yarim piyola guruch, bir osh qoshiq pomidor qaylasni, 2 dona sarimsoq.

**Tayyorlanishi:** qizigan yog'da kattaka qilib to'g'ralgan kartoshkalarni qizartirib, qovurib olamiz. Keyin piyoz, qizil sabzi solib, biroz qovurib, ustidan po'sti ajratilgan pomidor bilan bir osh qoshiq pomidor qaylasini solamiz. Oxirida bulg'or qalampirini ham qovurib, suv quyib, qaynatib olamiz.

Teftel uchun qiymaga bir dona qirg'ichdan chiqarilgan piyoz, guruch, maydalangan sarimsoq, tuz va ziravorlar solib, yaxshilab aralashtiramiz.

Qiymadan "koptokcha"lar yasab, qaynab turgan jarkop ustiga teramiz. Olovni pasaytirib, 30-35 daqqa davomida dimlaymiz. Tayyor bo'lgach, ustiga xohishga ko'ra ko'katlar sepib, dasturxonga tortamiz.

**Yoqimli ishtaha!**

